

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
TABIIY FANLAR FAKULTETI  
TUPROQSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA KAFEDRASI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Mavzu: Kogon tumani geografiyasi: tabiiy va iqtisodiy jihatlari**

**5140600 – Geografiya ta'lif yo'nalishi**

**Bitiruvchisi:** Ergashev Anvar Karimovich

**Ilmiy rahbar:** katta o'qituvchi Nematov A. N.

**Himoyaga tavsiya etildi: \_\_\_\_\_ “ ” may 2018 yil**

**(imzo)**

**Buxoro – 2018**

## M U N D A R I J A

<b>Kirish . .....</b>	3
<b>I bob. Kogon tumanining tabiiy geografik xususiyatlari</b>	
1.1 Kogon tumanining geografik o'rni, chegaralari .....	6
1.2 Kogon tumanining geologik va yer usti tuzilishi, foydali qazilmalari .....	9
1.3 Kogon tumanining iqlimi va ichki suvlari .....	11
1.4 Kogon tumanining tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda uni muhofaza qilish masalalari .....	15
<b>II bob. Kogon tumanining ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari</b>	
2.1 Tumanning tashkil topishi va ma'muriy hududiy tuzilishi .....	21
2.2 Tuman aholisi va mehnat resurslari .....	27
2.3 Tumanning sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari .....	33
2.4 Tumanning transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari, tumanda ijtimoiy sohalarning rivojlanishi .....	50
<b>Xulosa va takliflar .....</b>	64
<b>Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati .....</b>	67
<b>Ilovalar .....</b>	69

## Kirish.

Mamlakatimizdagi barcha hududlar  
qatori Buxoro viloyatida ham  
har bir tuman va shaharni  
rivojlantirish bo'yicha aniq  
rejalarni ishlab chiqqanmiz.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev*

Qadim – qadimdan insonlar o'z tug'ilgan go'shasini Vatan deb tushunib kelganlar. Vatan o'z qishlog'ingdan, o'z ostonangdan boshlanadi, deb bejiz aytishmagan. Vatanni sevib ardoqlamoq uchun avvalo uni yaxshi bilmox kerak. "Bizda ona zaminga mehr alohida e'tiqod darajasiga ko'tarilgan", – deb aytgandi, mamlakatimizning birinchi Prezidenti I. A. Karimov. Shu ma'noda o'z tug'ilib o'sgan yurtini chuqur o'rganish uning tarixi va geografiyasini bilish shu yurtga bildirilgan yuqori darajadagi hurmat deb tushunaman. Mamlakatimizda mustaqillik yillarda milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarimizni hayotga qaytarish borasida katta ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Turon mintaqasida kechmishi ming yillarga borib taqaladigan qadimi shaharlar, ko'hna kentlar, tarixiy qishloqlar mavjudligi va ularning geografik xususiyati turkiy xalqlarning buyuk davlatchilik tarixi va madaniyatidan dalolat beradi. O'zbek xalqining ajdodlari tomonidan 3000 yil muqaddam yurtimizda asos solingan Buxoro shahri nafaqat O'zbekiston yoxud O'rta Osiyo mintaqasi, balki jahondagi eng ko'hna va qadimi shaharlardan biri hisoblanadi. Buxoro shahri o'rta asrlarda *Buxoroi sharif – Sharofatli Buxoro* deb e`zozlangan.

Buxoro nafaqat yurtimiz, balki butun sharqning ilm markazi bo'lib kelgan. Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Sayyid Amir Kulol, Bahouddin Naqshband, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va boshqa shu kabi buyuk zotlar yetishib chiqqan, tahsil olgan bu makon bundan buyon ham ilmu-fan, ma'rifat va ijod beshigi bo'lib qolaveradi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini mustahkamlash va har tomonlama rivojlantirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning izchil borishini ta'minlash, mamlakatga kiritilayotgan investitsiya oqimini to'g'ri yo'naltirish davr talabidir. Buning uchun har bir tuman, har bir shaharning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatini o'rganish yuqoridaagi vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi. Zero, professor A.Soliyev ta'kidlaganidek "Endigi sharoitda katta davr, katta hududni o'rganishning ilmiy ahamiyati kamaydi. Kichik korxona, kichik biznes, kichik hudud davri keldi. Kichik kalit katta uyni ochadi". Shu holat bitiruv malakaviy ish mavzusining nechoqlik **dolzarb** ekanligini tasdiqlay oladi.

Mamlakat iqtisodiyotini hududlar iqtisodiyoti tashkil etadi. Hududlar iqtisodiyoti kichik hududlar iqtisodiyoti majmuasidir.

Buxoro (Buxoro vohasida) viloyatida esa ko'hna va hamisha navqiron Buxoro bilan bo'ylashadigan ko'plab shaharlar va tumanlar mavjud bo'lgan. Bular orasida Kogon tumani alohida xususiyatga ega. Men o'zimning bitiruv malakaviy ishimda Kogon tumani tabiat, aholisi va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini o'rganishga, tadqiq qilishga va viloyatda tutgan mavqeyini tasvirlashga harakat qildim. Zero, ona yurtimga bo'lgan muhabbat meni bu ishga undadi. Shu narsani bildimki "bir narsa"ni bilish uchun ko'p narsani o'rganmoq kerak ekan.

Shu bois, men bitiruv malakaviy ishimning **maqsadi** sifatida Kogon tumanining tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatlarini o'rganish, tahlil qilishni belgilab oldim.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbliji va maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish belgilandi:

- ✓ Tumanning geografik o'rni va chegaralarini viloyati doirasida o'rganish va baholash;
- ✓ Tumanning tashkil topishi, unda xalq xo'jaligi tarmoqlarining, aholi manzilgohlarining, ma'muriy birliklarning (QFY, MFY) rivojlanish tarixini o'rganish;
- ✓ Tuman demografik salohiyatini tahlil qilish;

- ✓ Tumanning tabiiy imkoniyatlari: geologik va yer yuzasi tuzilishi, foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simlik hamda hayvonot dunyosini o'rganish;
- ✓ Tumanning sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini o'rganish va baholash;
- ✓ Tumanning transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari, tumanda ijtimoiy sohalarning rivojlanishini tahlil qilish.

Mavzuning **obyekti** sifatida Kogon tumani tanlandi, predmeti esa tumanning tabiiy va iqtisodiy jihatlaridir.

Bitiruv malakaviy ishning **amaliy ahamiyati** shundan iboratki, ushbu tayyorlangan ma'lumotlardan tumanda ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirishda, hududning tabiiy, demografik, iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali va oqilona foydalanishda, hudud tabiatini muhofaza qilishda, tumanning istiqbolli rivojlanish dasturlarini tuzishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari bu ma'lumotlardan umumta'lim maktablarining geografiya, tarix darslarida, o'lkashunoslik to'garaklarida foydalanish juda katta samara beradi.

Bitiruv malakaviy ish tarkibi kirish, 2 bob, 8 qism, xulosa va takliflar, foydalilanigan adabiyotlar hamda ilovalardan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish davomida O'zbekiston tabiiy va iqtisodiy geografiyasi, toponimika, o'lkashunoslik, tarixga oid juda ko'p manbalarni, ilmiy maqolalar, ommaviy axborot vositalari manbalari materiallari, statistik ma'lumotlar, internet materiallarini tahlil qildim. Xususan, Buxoro davlat universiteti geografiya ta'lim yo'nalishida olgan to'rt yillik bilimlarimga tayandim. Shu bois, menga ushbu dargohda tahsil bergen barcha ustozlarimga minnatdorchilik bildiraman.

## I bob. Kogon tumanining tabiiy geografik xususiyatlari

### 1.1 Kogon tumanining geografik o'rni, chegaralari

Hududning geografik o'rni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga ko'p jihatdan ta'sir qiladi. Kogon tumani Buxoro viloyatining tumalaridan biri bo'lib, maydoni 0,510 ming km<sup>2</sup>. Tuman viloyat maydonining (40 320 km<sup>2</sup>) 1,2 % ni tashkil qiladi. Maydonining kattaligiga ko'ra viloyatning 11 ta tumani ichida 10-o'rinda (faqat Vobkent tumanidan katta) turadi (1-jadval). Kogon tumani va Kogon shahrining birqalikda maydoni 525,35 km<sup>2</sup> ni tashkil etadi.

*1- jadval*


#### Buxoro viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi

№	Tuman nomi	Tuman markazi nomi	Hudud maydoni (ming km <sup>2</sup> )	Aholi soni (ming kishi)		
				jami	Shahar va shaharchalar	qishloqlar
1	Peshku	Yangibozor sh-cha	8,72	105,8	11,8	94
2	Qorako'l	Qorako'l sh	8,68	143,8	55,7	88,1
3	Jondor	Jondor sh-cha	5,17	149,7	29,4	120,3
4	G'ijduvon	G'ijduvon sh	3,95	271,6	77,4	194,2
5	Shofirkon	Shofirkon sh	3,72	155,6	38,1	117,5
6	Olot	Olot sh	3,23	86,6	34,6	52
7	Romitan	Romitan sh	2,45	122,8	32	90,8
8	Qorovulbozor	Qorovulbozor sh	2,20	15,6	10,3	5,3
9	Buxoro	Galaosyo sh	1,32	140,9	32,3	108,6
10	Kogon	Kogon sh	0,52535	132,764	60,164	72,6
11	Vobkent	Vobkent sh	0,29	121,7	23,1	98,6
12	Buxoro shahri		0,07	270,5	270,5	00

Jadval Buxoro viloyati o'lkashunoslik atlasi ma'lumotlari asosida tuzildi

Tuman viloyatning sharqi va janubi-sharqiy qismlarini o'z ichiga oladi. Uning shimoliy chekka nuqtasi 39° 55' sh.k. da Vobkent, Qiziltepa va Buxoro tumanlarining Kogon tumani bilan tutashgan joyida, janubiy chekka nuqtasi 39° 34'

sh.k. da Buxoro tumani hamda Kogon tumanining janubiy qismlari tutashgan joyida, chekka g'arbiy nuqtasi  $64^{\circ} 25'$  shq.u. da tumanning Buxoro tumani bilan chegarasiga, sharqiy chekka nuqtasi esa  $64^{\circ} 43'$  shq.u. da Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan chegarasiga to'g'ri keladi (1-rasm).



1-rasm. Buxoro viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi

Buxoro viloyatining siyosiy-ma'muriy xaritasiga qaraydigan bo'lsak Buxoro viloyatidagi 11 ta tuman ichida faqatgina Kogon va Romitan tumanlari viloyatning boshqa tumanlari ichida yarim anklav shaklida kirib borgan. Tumanning chegarasiga

to'xtaladigan bo'lsak Kogon tumani uchchala tomondan, ya`ni g`arb, sharq, janub tomonidan chegara Buxoro tumani orqali chegaradosh. Shimolda qisqa masofada Vobkent tumani hamda shimoli-sharqda Amu-Buxoro mashina kanalining o'zani orqali Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan chegaradosh. Ushbu ma`lumotlar Kogon tuman Davlat Geokadastr tashkilotidan olingan ma`lumotlar asosida aniqlandi. Chunki ayrim ma`lumotlarni tahlil qilganda, jumladan, "Kogon tuman tarixi" risolasi, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma`lumotlarida tumanning janubi-sharqi chegarasi Qorovulbozor tumani bilan chegara qilib ko'rsatilgan (2-rasm).



**2-rasm. Buxoro viloyatining ma`muriy-hududiy bo'linishi**

Tuman hududi shimoldan janubga uzoq masofaga cho'zilgan bo'lib, shimoldan janubga eng uzun joyi 36 km, g'arbdan sharqqa tomon eng keng joyi esa 20,5 km ga cho'zilgan. Tumanning eng chekka g'arbiy ( $64^{\circ} 25'$  shq.u.) va sharqiyl ( $64^{\circ} 43'$  shq.u.) nuqtalari orasidagi masofa 25,6 km ga, eng chekka shimoliy ( $39^{\circ} 55'$  sh.k.) va janubiyl ( $39^{\circ} 34'$  sh.k.) nuqtalari orasidagi masofa esa 39 km ga teng.

Tuman chegarasining umumiyligi 120 km bo'lib, eng uzun chegarasi Buxoro tumani bo'y lab (100 km dan ortiq) o'tadi, eng qisqa chegara Vobkent tumani

bo'ylab o'tsa Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani bilan esa 16 km masofada chegara o'tgan(1-ilova).

Tumanning markazi Kogon shahri (maydoni 15,35 km. kv.) hisoblanadi. Shahar tuman hududining markazida joylashgan. Bu jihatidan Buxoro viloyatining faqatgina ikkita tuman markazi, ya`ni Kogon va Qorovulbozor shaharlari tumanning markazida joylashgan. Buning sababi esa viloyatdagi barcha tuman markazlari Buxoro shahriga nisbatan yaqin joylashishini sabab qilib ko'rsatsa bo'ladi. Jumladan Kogon va Buxoro shaharlari orasidagi masofa 12 km ni tashkil etadi. Tuman markazi xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan A-380 raqamli Kogon-Qarshi va respublika ahamiyatiga ega bo'lgan Kogon-Qiziltepa magistral yo'li bilan bog'langan. Kogon shahridagi "Buxoro temir yo'l" vokzali ya`ni, Buxoro-1 stansiyasi tumanning hududida joylashgan. Bu temir yo'l vokzali tuman xo'jaligi uchun muhim xususiyatga ega. Viloyat uchun muhim xususiyatga ega bo'lgan "Buxoro xalqaro aeroporti" tuman chegarasidan 8 km masofada, "Kogon" avtobekatidan 10 km masofada joylashgan. Kogon tumanining Navoiy viloyati, Qorovulbozor tumani hamda Buxoro viloyat markazi Buxoro shahri bilan bevosita yaqinligi tuman iqtisodiy geografik o'rning qulayligidan darak beradi. Bu esa bevosita viloyatga yo'naltiriladigan investitsiya oqimining (investitsiya oqimi birinchi navbatda markaz va uning atrofiga yo'naltiriladi) bir qismini o'ziga tortish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

## **1.2 Kogon tumanining geologik va yer usti tuzilishi, foydali qazilmalari**

Kogon tumani tabiiy geografik rayonlashtirish nuqtayi nazaridan Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugida joylashgan bo'lib, hududining katta qismi, ya`ni janubiy va sharqiy tomoni Sandiqli tabiiy geografik rayoni hududiga, qolgan shimoli-g'arbiy tomonlari esa Buxoro-Qorako'l tabiiy geografik rayoniga qaraydi. Tuman hududi Turon pasttekisligining janubi-sharqiy tomonida joylashgan. Tuman yer yuzasi janub va sharq tomonidan g'arb va shimol tomonga pasayib boradi. Hududi asosan balandligi 200 m dan 300 m gacha bo'lgan tekislikdan iborat. Eng yuqori cho'qqisi – dengiz sathidan 252 m yuqorida bo'lib, Quymozor platosining Olchin tepaligi. Kogon shahri atrofidagidagi pastqam joylarning balandligi 215 m gacha

(Kunjako'1 pastqamligi) yetadi. Tuman subtropik kenglikda va dengiz sathidan o'rtacha 222 metr balandlikda bo'lib, relyefi tekislikdan iborat. Tuman hududida bir qancha kanallar (12 ta), kollektorlar va tumanning shimoliy tomonidan Zarafshon daryosining irmog'i oqib o'tadi. Tumandagi asosiy kanal bu Quyimozor kanali hisoblanadi. Bu kanal tumanning sharqiy va janubiy tomonidan 35 km masofada oqib o'tadi. Bu kanalga yonma–yon holda “Parallel” kollektori ham oqib o'tadi.

Tuman hududi asosan tekislikdan iborat bo'lganligi sababli, yer yuzasini asosan qumli, sho'rxok tekisliklar tashkil qiladi. Quyimozor platosida esa shag'al toshli relyef shakllari keng tarqalgan. Tuman hududining janubi, janubi-sharqiy, shimoli-sharqiy tomonlari asosan yaylovlardan iborat. Sharqiy va markaziy tomonlarida esa partov bo'z yerlar, aholi manzilgohlari atrofida qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan yerlar keng tarqalgan. Hududning g'arbiy tomoni asosan aholi manzilgohi bo'lganligi sababli bog'lar, uzumzorlar va partov bo'z yerlar keng tarqalgan.

Tuman yer yuzasi landshaftlarini tahli qilganda quyidagilar uchraydi: hududning shimoli-g'arb tomonida antropogen landshaft, ya'ni sug'oriladigan yerlar va seliteb hududlar uchraydi. Shimoli-sharq tomonida esa qumli cho'llar uchraydi. Tuman hududidagi Quyimozor kanalining shimoliy tomonlarida asosan gipsli cho'llar, janubiy tomonida esa qumli cho'llar uchraydi. Hududning sharqiy tomonida esa ozgina hududda sho'rxoksimon cho'llar landshafti uchraydi. Quyidagi landshaftlardan eng keng tarqalgani bu antropogen landshaft hisoblanib, buning asosiy sababi qadimda Zarafshon daryosi suvi to'lib oqqan va tuman hududining shimoliy tomonlariga qadar oqib kelgan, tumanning janubiy tomoni esa o'sha davrda tabiiy suv oqimiga ega bo'limgan. Buning natijasida shimoli-g'arbiy hududlarda aholi zich o'rnashib, o'z xo'jaligini yuritishgan.

Tuman hududi paleozoy burmali negizining bukilgan qismida joylashib, uning ustini mezozoy va kaynazoy cho'kindi jinslari qoplab olgan. Tuman hududi yuzasida kaynazoy jinslari keng tarqalgan bo'lib, ular ichida eng ko'p uchraydigan jinslar to'rtlamchi davrning (Q) allyuvial-delta yotqiziqlari bo'lib, ular Zarafshon daryosi olib kelgan shag'al, qum, qumoq va loyqalardan iborat. Qolgan deyarli 3 % hududi

esa neogen davrining yotqiziqlari bilan qoplangan va bu yotqiziqlar tuman hududining janubida uchraydi.

Tuman hududi geologik yoshdagি baland subgorizontal yassi tekisliklardan tashkil topgan bo'lib, katta qismi subaerol-delta morfostruktura tipiga, sharqiy va janubiy tomonlari Turon plitasi va orogen zonalari birikmalariga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, Yer ichki qismidagi jarayonlar ta'sirida yer po'stida ro'y beradigan titrash, silkinish va tebranish harakatlariga yer qimirlashi (zilzila) deb ataladi. O'zbekiston hududida va unga qo'shni o'lkalarda Chotqol-Farg`ona, Sharqi Farg`ona, Janubiy Farg`ona, Janubiy Tyanshan (uning g`arbiy va shimoliy qismi), Markaziy Qizilqum, Piskom-Qarjantog`, Janubiy O'zbekiston seysmogen zonalari ajratilgan.

Kogon tumani Markaziy Qizilqum seysmik faol oblastining bir qismida joylashgan. Tuman hududi 8 balli makroseysmik oblast chegarasiga to'g'ri keladi. Tumanning janubiy tomonida 6,5 magnitudali zilzila bo'lishi ehtimoli bo'lgan zona o'tgan. Qolgan hududida esa bu jarayon kuzatilmaydi.


Tumanning foydali qazilmalariga keladigan bo'lsak hududda asosan ohaktosh, gips, g'isht-cherepitsa xom ashyosi, marmar va qurilish materiallari bor. Tuman hududida bu konlar nomi bilan bog'liq aholi punktlari yuzaga kelgan. Masalan, Ganchkash qishlog'I, Konchilar (BGGK) ko'chasi bunga misol bo'la oladi.

### **1.3 Kogon tumanining iqlimi va ichki suvlari**

Kogon tumani subtropik iqlim xususiyatlari mavjud bo'lgan Turon iqlimi o'lkasida joylashgan. Iqlimi kontinental. Tumanda yillik o'rtacha harorat  $+16^{\circ}\text{C}$ . Qishda yanvarda o'rtacha harorat  $+1,5^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etsa, ba'zan Arktika va Sibir havo massalarining kirib kelishi va turib qolishi natijasida qish sovib ketadi va eng past harorat  $-23,5^{\circ}\text{C}$  (2008-yil yanvarda) gacha pasayadi. Yoz quruq va issiq bo'lib, iyul oyida o'rtacha harorat  $+30^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi. Eng yuqori harorati esa  $+46,4^{\circ}\text{C}$  (1997-yil iyulda) ni tashkil etadi. Vegetatsiya davri 214 kun. Tumanda shamolning eng ko'p kuzatiladigan yo'nalishi yilning eng sovuq va eng issiq oylarida asosan

shimoldan esadi. G'arb tomondan esadigan shamollar esa o'zi bilan birga nam havo oqimini va asosan yog'inlar olib keladi.

Tuman hududida yog'inlar asosan yomg'ir shaklida yog'ib, hudud va yil fasllari bo'yicha noteks taqsimlangan. Buxoro iqlim kartasiga qaraganda viloyat hududi yog'inlarning o'rtacha yillik taqsimlanishi bo'yicha 4 ta mintaqaga bo'linganini ko'rish mumkin (3-rasm).



Kogon tumani hududi esa ushbu mintaqaning eng ko'p yog'in tushadigan qismida joylashgan. Tuman hududiga yiliga o'rtacha 134 mm yog'in tushadi. Yog'inning ko'p qismi bahor va qishda yog'adi. Yog'inning asosiy qismini yomg'ir tashkil etadi, qor kam yog'ib, 4-5 kun erimay turadi. Yillik yog'inning 44 % bahorda, 39 % qishda, 15 % kuzda va qolgan 2% yog'in yoz faslida yog'adi.

Tumanning tabiiy geografik xususiyatiga nazar soladigan bo'lsak, tuman hududidan oqib o'tuvchi tabiiy suv oqimi, ya'ni daryo va ko'l mavjud emas. Chunki

yog'inlar miqdorining kamligi, haroratning yuqoriligi bois tuman hududida tushgan yog'in oqimlar hosil qilmasdan yer ostida shimilib, bug'lanib ketadi.

Uzoq yillar mobaynida tuman hududi Zarafshon daryosi suvi bilan sug'orilgan. Daryoning yuqori va o'rta oqimida suvga bo'lган ehtiyojning ortishi natijasida Quyi Zarafshonga keladigan suv miqdori keskin kamayib ketdi. Suv tanqisligini bartaraf etish maqsadida XX asrning II yarmidan keyin Amudaryodan Quyi Zarafshonga suv keltirish loyihalari ishlab chiqildi. Natijada 1962 yil Amu - Qorako'l (52 km), 1965 yil Amu - Buxoro kanalining I navbati (197 km), 1975 yilda esa II navbati (233 km) ishga tushirildi. Natijada Amu - Buxoro kanalining bir qism suvi To'dako'l suv omboriga quyildi va undan tuman yerlarini sug'orishda foydalaniladi. Ana shu davrdan boshlab Kogon tumanining asosiy suv manbai – Amu-Buxoro mashina kanali va uning tarmoqlaridir.

Hududning xo'jalik sohalari Amu-Buxoro, Quyimozor kanali, Quyimozor va To'dako'lsov omborlari, yer osti hamda yillik yog'inlar orqali suv bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari tuman hududida Kurjan va Siyozpoyon suv uzatish inshooti mavjud. Biroq bulardan hozirgi kunda to'liq foydalanimaydi. Quyimozor va To'dako'l suv omborlari garchi tuman hududida joylashmagan bo'lsada lekin tuman xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Hududda ichimlik suvi Quyimozor suv omboridan keluvchi suv quvurlari orqali tumandagi ikkita suv tindirish omborida saqlanib, qayta ishlanib aholi iste'moli uchun jo'natiladi.

Kogon tumanida Quyimozor suv omboriga yaqin joyda Quyimozor nasos stansiyasi joylashgan. XX asrning 60-yillarda Quyimozor suv omboriga maxsus kanal (18 km) orqali Zarafshon daryosidan suv keltiriladi, shuningdek, Amu-Buxoro mashina kanalidan  $40 \text{ m}^3/\text{s}$  suv quyadigan "Quyimozor" nasos stansiyasi qurildi. Ushbu nasos stansiyasi (suyuqliklarni yuqoriga ko'tarish uchun mo'ljallangan bino; nasos agregati va quvurlardan iborat inshoot) viloyatdagi 5 ta nasos stansiyasidan biri hisoblanadi. Viloyatdagi nasos satansiyalarining uchtasi Olot tumanida, bittasi Qorako'l tumanida va bittasi Kogon tumanida joylashgan.

Tuman hududidan oqib o'tuvchi Quyimozor kanali, hamda tuman xo'jaligi uchun ahamiyatli bo'lган jami bo'lib, 12 ta kichik kanallar tarmog'i mavjud bo'lib, ular tuman hududidan 100 km dan ortiq masofada oqib o'tadi (2-jadval).

*2-Jadval*

### Kogon tumanida joylashgan kanallar

Kanallar	Uzunligi (km da)
Kobdun	7.8
Axurberdi	7.6
Eski Breshim	3
Yangi Breshim	2.8
Cho'kati	5.2
Yangi Deosio	1.6
Yabon	8.1
Xonobot	4.3
Metrobod	9.4
Yangiobod	15.2
Quyi Xomi	5
Kogon arig'i	8.6
Hududdan o'tgan umumiy uzunligi	78.6

Jadval Kogon tuman statistika bo'limi ma'lumoti asosida tuzildi

**Quyimozor kanali.** Kanal Quyimozor suv omboridan boshlanadi va kanalning bir qismi tuman hududining sharqiy va janubiy tomonidan kesib o'tadi. Kanalning tuman hududidagi uzunligi 35 km ga yaqin, o'rta oqimida suv sarfi  $14,4 \frac{m^3}{s}$  bo'lib, bu kanal Dengizko'lga borib quyiladi(2-ilova).

Cho'l zonasida qorako'lchilik bilan bog'liq chorva mollarining suv ta'minoti sizot va artezian quduqlar suvi yordamida amalga oshiriladi. Tumanning sug'oriladigan yerkari Buxoro vohasiga tegishli bulib, u joylarda ko'p tarmoqli zovurlar sistemasi barpo qilingan. Sizot va oqava suvlar zovurlar orqali janubga — Dengizko'l ko'liga yo'naltirilgan. Bu zovurning eng yirigi Parallel kollektori hisoblanadi. Bunday nomlanishiga asosiy sabab Quyimozor kanaliga yonma-yon

joylashganligi sabab bo'lgan. Ushbu kollektor 1991-yilda foydalanishga topshirilgan. Bu kollektor tuman hududidan 30 km dan ortiq masofada oqib o'tadi(3-ilova).

Tuman hududi asosan tekislikdan iborat bo'lgani uchun yer osti suvlari yer betiga yaqin joylashgan. Hozirgi kunda yozgi jazirama vaqtida ekinlar va chorvalarni suvga bo'lgan talabini qondirish maqsadida grunt suvlaridan foydalaniladi.

Grunt suvlari – yer osti suvining eng ustki qatlami hisoblanib, yer betiga eng yaqin joylashgan. U odatda suv o'tkazmaydigan qatlamning ustida yig'iladi. Bu suvlar yer osti oqar suvlarining sizishidan, yog'in suvlaridan va bosim ostida pastki qatlamlardan sizib chiqayotgan yer osti suvlaridan to'yinadi.

Tumanda grunt suvlarining yer betiga yaqinligi ayrim joylarda 0,5-1 m yuzada joylashgan bo'lib, quyi chegarasi esa 15-20 m chuqurlikda uchraydi. Markaziy, g'arbiy va shimoli-g'arbiy tomonlarida grunt suvlarining quyi chegarasi 8-10 m ni tashkil etsa, janub va sharq tomonlarga tomon chuqurlashib boradi. Buning asosiy sababi tumanning sharqiy tomonida shimoli-sharqdan janubi-g'arbgaga cho'zilgan ko'tarilmalarning mavjudligi.

**Qatlamlar orasidagi suvlar** (artezian) – nisbatan chuqurda ikkita suv o'tkazmaydigan qatlamlar orasidagi bo'shliqlarda sizib yuruvchi suvlardir. Agar suvli qatlam nisbatan chuqurda joylashsa, suvning siljishi juda sekin bo'ladi, binobarin, suvi issiq biroz minerallashgan bo'ladi. Bunday yer osti suvlar bosimli va bosimsiz holda uchraydi. Tumanning bo'r davri yotqiziqlari orasida bosimli (artzian) yer osti suvlar mavjud bo'lib, sho'r emas, binobarin, ulardan ichimlik suvi sifatida foydalanish mumkin.

Tuman hududining 1000-1500 m chuqurliklarida issiq mineral suvlar mavjud bo'lib, shu xususiyatlardan kelib chiqqan holda xo'jalik sohalarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **1.4 Kogon tumanining tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda uni muhofaza qilish masalalari**

Ma'lumki tuproq tabiatning eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib, o'zida jonli va jonsiz tabiiy borliqni mujassam qilgan hosiladir. Buxoro viloyat hududiga

cho‘l zonasiga xos tuproqlar tarqalgan bo‘lsada, ular bir butun yaxlit maydonlar hosil qilmaydi. Tuproqlar ona jinsining xususiyati, joyning relyefi, sizot suvlarning kimyoviy tarkibi va chuqurligi kabi omillarga binoan tuproqlarning tiplari almashib turadi. O‘zlashtirilganlik darajasiga ko‘ra tuproqlar 2 ta katta guruhga (cho‘l va voha) ega.

Tuman hududi Buxoro deltasida joylashgan. Buxoro deltasida daryo qayiri va ikkita qayir ustida terrasa ajratiladi. Ulardan birinchisi daryoning ikkala qirg‘og‘i bo‘ylab bir qancha metrdan to 2 km gacha kenglikda joylashgan. U yengil qumoq, qumloq va qumdan iborat qatlamdan tarkib topgan. Tuproqning mayda qismi qatlamlili shag‘al bilan to‘shalgan. Sizot suvlari 0,5-2 m chuqurlikda joylashgan. Buxoro deltasining qolgan qismi Zarafshonning ikkinchi qayiri ustida joylashgan. Buxoro deltasining qolgan qismi yuqori qismida shag‘allar 2-5 m chuqurlikda joylashgan. Sizot suvlarining sho‘rlanishi 1,5-3g/l deltani o‘rta qismi qatlamlili allyuvial oqizma loyqalardan iborat ular 5-10 m shag‘allar bilan to‘shalgan. Sizot suvlari 1-3 m chuqurlikda joylashgan, ularning sho‘rlanishi 5-10 g/l. Deltaning katta qismi maydonlarida allyuvial yotqiziqlar qalinligi 0,5-1 m va undan ko‘proq bo‘lgan agroirrigatsion yotqiziqlar bilan qoplangan. Buxoro deltasini sizot suvlari oqimi sharoitiga ko‘ra, asosan yer osti suvining ma’lum maydondan kam oqib chiqib ketadigan guruhiga mansub bu sizot suvlarining ko‘tarilishi hamda sho‘rlanish jarayonining kuchayishiga olib keladi. U jarayon sizot suvni deltaning yuqori qismidan chekka joylarga tomon oqib chiqib ketishini yomonlashuviga bog‘liq.

Kogon tumani hududida bir necha xil tuproq turlari uchraydi. Bular och qo‘ng‘ir, qumoq cho‘l tuprog‘i va sho‘rxok. Ular o‘zlashtirilganlik darajasiga ko‘ra ikkita katta guruhga:

1. Cho‘l zonasasi tuproqlari
2. Sug‘oriladigan tuproqlarga bo‘linadi.

Cho‘l zonasasi tuproqlariga quyidagi tuproqlar kiradi: sho‘rxoklar, qumli-cho‘l tuproqlari, och qo‘ng‘ir tuproqlar

**Sho‘rxoklar** - Buxoro viloyatining barcha tumanlari singari Kogon tumanida ham uchraydi. Ular odatda, grunt suvlari yer yuzasiga yaqin (0-3 metr) hamda

yog'inga nisbatan mumkin bo'lgan bug'lanish bir necha marta ko'p bo'lgan joylarda vujudga keladi. Sho'rxok maydonlar tuman hududining markazida, sharqiy va janubi-sharqiy tomonida, Kogon shahridagi zovurlar atrofida mavjud. Tumanning voha qismi atrofida ham sho'rxoklar mavjud bo'lgan. Lekin ular hozirda meliorativ holati yaxshilaniб ekin maydonlariga aylantirilgan.

Yarim mustahkamlangan va mustahkamlanmagan qumlar esa tumanning janubiy tomonlarida uchraydi. Bu tuproq turida o'simlik o'sishi uchun sharoit noqulay hisoblanadi.

**Qumli-cho'l tuproqlari** chimli qatlamni hosil qiladigan qiyoq o'simligi bilan mustahkam bog'langan tuproqda tarkib topgan. Gumus 25-30 sm qalinlikda kuzatiladi. Shu qatlamda barcha gumus joylashgan miqdori bu qatlamda 0,5 foiz atrofida, azot 0,04-0,05 foiz, umumiy fosfor 0,14-0,15 foiz, sizot suvlari 2-2,5 m chuqurlikda joylashgan.

Sug'oriladigan dehqonchilikda qumli cho'l tuproqlari jalb qilinganda chim buziladi va bu tuproqlarning genetik xususiyati yo'qoladi. Qumli cho'l tuproqlari sho'rangan yoki kuchsiz darajada sho'rangan bo'ladi. Sug'oriladigan tuproqlarda sho'rلانish kuchsiz va o'rtacha darajada ortadi. Uzoq muddat sug'orish sizot suvlarini 2-3 m gacha ko'tarilishiga sabab bo'ladi, bu esa qumli cho'l tuproqlarining gidrologik rejimi o'zgarishiga va ularning cho'l o'tloq tuproqlariga o'tishi (transformatsiyasi) ga olib keladi.


Sug'oriladigan tuproqlar guruhidan *o'tloqi tuproqlar* keng tarqalgan. Bu tuproq tuman hududining katta qismida tarqalgan bo'lib, markazida, shimolida va g'arbiy tomonida keng tarqalgan. Bunday tuproqlar grunt suvlari ta'sirida hosil bo'ladi. Bunday tuproqlarda namlik ko'pligi tufayli o'simliklar yaxshi o'sadi. O'zbekistonning sug'orma dehqonchilik zonasida umumiy sug'oriladigan maydonning 50 % ga yaqinini *o'tloqi tuproqlar* tashkil etadi. Sug'oriladigan *o'tloqi tuproqlarda* 1-2 % chirindi uchraydi.

**Sug'oriladigan o'tloqli tuproqlari** cho'l zonasining boshqa tuproqlarga solishtirilganida ular gumus miqdori (1,1-1,45%) va azotga (0,08-0,12%) bir muncha boy. Gumusni agroirigatsion oqizma loyqalarga chuqur kirib borishi tuproq kesimida

uning zaxirasini chuqur kirib borishi tuproq kesimida uning zaxirasini yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Qadimgi allyuvial va delyuvial-provilyuval yuzalarda tarkib topgan. Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarda gumus miqdori oz (0,5-0,7%) chunki ularning o‘tmishidagi – sur qo‘ng‘ir yoki taqirli tuproqlarda organik modda miqdori kam bo‘lgan.

Bu tuproqlarda gips oz miqdorda (0,12-0,25%) va u sho‘rtoblanish jarayoni rivojlanish jarayoniga to‘sinq bo‘la olmaydi. Shu sababli ildiz tarqalgan qatlamning quyi qismiga ayrim hollarda singdirish sig‘imi tarkibiga natriy va magniy ionining kirish hisobiga sho‘rtoblanish hosil bo‘lgan. Sho‘rtoblanish tuproqni suv o‘tazish ko‘rsatkichlarni pasayishiga olib keladi, tuproqni sug‘orishlardan so‘ng zichlanishi va boshqa salbiy ko‘rsatkichlari vujudga keltiradi. Karbonatli tuproq kesimi bo‘yicha tekis 8,8-9,3%. Umuman sug‘oriladigan o‘tloqli tuproqlar birmuncha yuqori ishlab chiqarish qobiliyatiga ega va tuman yer fondi qimmatli qismini tashkil etadi. Tumanning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari deyarli to’liq shu tuproqlarda yetishtiriladi.

Tuman hududida sug‘oriladigan tuproqlarning sho‘rlanganlik darajasi turlicha xususiyatga ega. Tuman sug‘oriladigan yerlarining 45,1 % i o‘rtacha sho‘rlangan, 34,7 % i kuchsiz sho‘rlangan va yuvilgan, 13,6 % ini kuchli sho‘rlangan va qolgan 6,6 % i esa sho‘rxoklar bilan kuchli sho‘rlangan yerlar tashkil etadi (4-rasm).



**4-rasm. Kogon tumani sug‘oriladigan yerlarining sho‘rlanganlik darajasi**

*Buxoro viloyati o’lkashunoslik atlasi ma‘lumotlari asosida tuzildi.*

Tuproqlar mexanik tarkibiga ko‘ra og‘ir qumloqli va loyli, o‘rta qumloqli, yengil qumloqli, qumloqli-qumliga bo‘linadi. Tumanda eng katta ulushni o‘rta qumloqli mexanik tarkibli tuproqlar tashkil etadi 36,9 foiz. Yengil qumloqli mexanik tarkibli tuproqlar esa 28,9%, og‘ir qumloqli va loyli mexanik tarkibli tuproqlar 18,3%, qumloqli-qumli mexanik tarkibli tuproqlar 15,9% ni tashkil etadi.

**O’simliklari.** Sug‘oriladigan yerlarda begona o‘tlarning yuzdan ortiq turi uchraydi. Cho‘l zonasining gipsli toshloq yerlarda achchiqmiya, gulsapsar, shuvoq, astragal, tuyatovon, karrak, isiriq keng tarqalgan. Sho‘rxok yerlarda sho‘rajriq, yulg‘un, qamish va boshqalar mavjud. Qumoq joylarda yaltirbosh, arpag‘on, iloq va cho‘lyalpiz kabilar o‘sadi.

Tuman hududidagi o’simliklar tarqalganlik darajasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga mansub:

•*tekislik va qoldiq past tog’lar* o’simliklar guruhi

•*daryo vodiylari va deltalari* o’simliklar guruhi

Buxoro viloyati hududida birinchi guruhga 7 xil o’simliklar formatsiyalari kiritilgan bo‘lib, tuman hududida asosan shuvoqli cho’llar hududning shimoliy qismida keng tarqalgan. Shu bilan birga siyraklashgan psammofit butazor o’simlikli cho‘llar formatsiyasi uchraydi.

Ikkinci guruhga viloyat hududida 2 formatsiya kiritilsa, shundan bittasi - vohalarning madaniy o’simliklari tuman hududida tarqalgan.

Viloyatning o’simliklar kartasi tahlil qilinganda geobotanik rayonlashtirish jihatdan tuman hududi Old Osiyo provinsiyalar guruhining Kaspiy orti provinsiyasiga kiradi. Ushbu provinsianing Qizilqum podprovinsiyasining Janubiy Qizilqum okrugiga kiradi.

**Hayvonlari.** Tuman hududining sharqiy va janubiy qismlarini egallagan qumli, gipsli va sho‘rxoksimon cho‘llarida asosan yovvoyi hayvonlardan bo‘ri, tulki, chiyabo‘ri, qushlardan qaldirg‘och, chumchuq, musicha, qarg‘a, mayna, kaptar, bedana, sassiqpopishak, zarg‘aldoq so‘fito‘rg‘ay, qirg‘ovul, suv havzalari yaqinida va zovurlar atrofida yovvoyi o‘rdak, g’oz, ondatra, baliqchi qushlar, qirg‘ovullar, sudraluvchilardan gekkon kaltakesak, toshbaqa, sariq ilon, echkemar;

kemiruvchilardan ko‘rsichqon, kichik qo‘shoyoq, qumsichqon, tipratikan, kalamushlar uchraydi.

Tumanning shimoli-g’arbiy tomoni asosan antropogen lanshaftlardan iborat bo’lganligi sababli u yerda yovvoyi holda uchrovchi hayvonlar kam uchraydi. Ularni asosan chumchuq, so’fito’rg’ay, o’rdak, ondatra, toshbaqa, ko‘rsichqon, qumsichqon va tipratikanlar tashkil etadi.

Landshaftlar ekologik darajasiga ko‘ra qoniqarli, mo‘tadil-qoniqarli, mo‘tadil, keskin ifloslangan darajalarga bo‘linadi. Ekologik guruhlariga mezomorf, galomorf, kseromorf, antropogen guruhlar kiradi. Tuman hududi landshaftlari keskin ifloslangan, antropogen hamda mo‘tadil darajadagi, kseromorf guruhlarga kiritiladi. Shu bilan birga mo‘tadil darajadagi, galoform guruhga janubi-sharqiy qismlari kiritiladi.

Tumanda kommunal-maishiy xo‘jalik oqim suvlarining tashlamasi tekshiriladigan post ham mavjud.

Buxoro viloyatining ekologik kartasida tumandagi sug‘oriladigan tuproqlarning ifloslanish darjasini tavsifi keltirilgan. Ushbu tavsifga ko‘ra (2011 yil ma’lumoti):

- Sho‘rxoklangan bilan kuchli sho‘rlangan sug‘oriladigan tuproqlar 4,2 %
- Kuchli sho‘rlangan sug‘oriladigan tuproqlar 7,6 %
- O‘rtacha sho‘rlangan sug‘oriladigan tuproqlar 30,7 %
- Kuchsiz sho‘rlangan va sho‘ri yuvilgan sug‘oriladigan tuproqlar sug‘oriladigan tuproqlar 57,5 % deb ko‘rsatilgan.

## **II bob. Kogon tumanining ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari**

### **2.1 Tumanning tashkil topishi va ma'muriy hududiy tuzilishi**

Bugungi kunda Buxoro viloyatining iqtisodiy markazlaridan hisoblangan Kogon tumani o'ziga xos tarixga ega. XIX asr oxirlarigacha bu hududda yashovchi aholi dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Tumanning tashkil topishiga nazar solsak, 1920-yil sentabrda Buxoro amirligi qizil armiya tomonidan bosib olingach, uning tarkibiga kiruvchi bekliklar tugatiladi. Shu yilning oktabrida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuziladi va ma'muriy jihatdan **viloyat, tuman, kentlarga** bo'linadi. Hozirgi Kogon tumani hududida Bahouddin kenti tashkil etiladi. Uning markazi qilib Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahri belgilanadi.

1926-yil 29-sentabrda O'zbekiston SSR hududi qaytadan ma'muriy birliklarga bo'linadi hamda 7 ta viloyat va 23 ta uyezd o'rнida 10 ta okrug tashkil qilinadi. Buxoro okrugida Bahouddin (tuman markazi – Yangi Buxoro (Kogon)) tumani tashkil qilinadi. O'shanda Bahouddin tumani tarkibiga Kogon, Tutikunda, O'bacho'li, Ko'lishag'alon, Frunze qishloq kengashlari va Qorovulbozor posyolkasi kiritiladi. Keyinchalik sovet hokimiyati va komunistik mafkura tomonidan Bahouddin tumanining nomi Yangi Buxoro, 1935-yildan Kogon tumani deb o'zgartiriladi. 1963-yilda tuman tugatilib, 1964-yilda u qayta tashkil etiladi.

Kogon so'zining kelib chiqish (etimologiyasi) tarixini izohlaydigan bo'lsak, joy nomining kelib chiqishi bilan bog'liq turli qarashlar mavjudligini uchratdik. Quyida ushbu ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

- 1) Mamlakatimiz, shu jumladan viloyatimizda uchraydigan toponimlar orasida etnonimlar aksariyatni tashkil etadi. Taniqli etnograf Q.Sh.Shoniyozirovning asarida XVI asrada Zarafshon vohasiga kelib joylashgan o'zbek urug'lari ro'yxati keltirilgan. Shular orasida "Kovon" urug'i ham bor. Bizning fikrimizcha, aynan ana shu urug' nomi Kogon toponimining etnonimi sifatida shakllanishiga olib kelgan, deb hisoblash mumkin. Til qonuniyatiga muvofiq "v" tovushi sirg'alib, fonetik o'zgarishga uchrab, "g" tovushini berishi mumkin.

2) Kogon toponimi Kogon hududida joylashgan qadamjo Avliyo Xo'ja-Kordondan olingan bo'lib, "kordon" so'zidagi "r" va "d" tovushlari fonetik o'zgarishga uchrab, "g" ga aylangan.

3) bir manbada Kogon nomi "kordon" so'zidan kelib chiqqan deyiladi. Agar bu ma'lumotni tahlil etadigan bo'lsak, bu hududda temirchilik, beshikchilik, kulolsozlik, oynasozlik, o'roqchilik, pichoqchilik, egarchilik, matolarga naqsh solish kabi hunarlar bilan mashg'ul bo'lgan kishilar yashagan va qishloqlar nomi shu kasb-hunar nomi bilan atalganining guvohi bo'lamiz. Degrez, Oynasoz, Ganchkash, Quruvchilar, Konchilar, Po'latchi qishloqlari shular jumlasidandir.

4) shuningdek, XIX asr oxiridagi tarixiy manbalarda yozilishicha, Yangi Buxoro shahriga asos solinganda shahar tarixiy chizmasini Rossiyadan kelgan **Kogan** ismli bir injener chizgan ekan. Keyinchalik Yangi Buxoro shahriga Kogon nomi go'yoki uning ismi tarzida berilgan.

Shunga o'xshash yana bir ma'lumotda go'yoki temir yo'lning dastlabki quruvchi muhandislaridan biri **Kagan** familiyali kishi bo'lib, shahar uning familiyasiga qo'yilgan;

Yana bir o'rinda tarixiy manbalarda go'yoki shunday ismli "inqilob"chi nomiga qo'yilgan. To'g'ri Kogan, Kagan kabi ism va familiyalar uchraydi. Biroq bu ma'lumotlarning asossizligini rad etadigan ishonchli dalil bor. 1868-yil Buxoro amirligining bo'ysundirilishidan oz vaqt o'tgach, 1870-yilda Buxoroga kelgan Rossiya imperiyasi harbiy qo'shnlari Bosh shtabi kapitani **Kostenko** Buxoro-Qarshi yo'lidagi birinchi to'xtash joyi – Kagan (**Kagan**-aynan shunday yozilgan) deb ta'kidlaydi. Demak, temir yo'l qurilishidan 18 yil, Buxoro "inqilobi"dan 40 yil oldin ham bu nom mavjud edi.

5) BuxDUDA faoliyat yuritgan filologiya fanlari nomzodi Saidjon Aliyev ma'lumotiga ko'ra, "**Kogon**" so'zi **Kohkon** so'zining buzilib talaffuz etilishi natijasida kelib chiqqan. Kohkon so'zi forscha "koh" – **somon**, "**kon**" **koni**", ya'ni **somon koni** ma'nosini anglatib, Kohkon qishlog'i XII-XIII asrlarda mavjud bo'lgan. Aholisi ziroatchilik bilan shug'ullanib, g'alla mahsulotlari yetishtirgan. 1888-yildan boshlab, Rossiyadan ko'chirib keltirilgan aholi Kohkon qo'rg'onida joylashtiriladi.

Rus alifbosida “h” harfi bo’lmaganligi sababli rusiyzabon aholi Kohkon so’zini **Kokon, Kogon** tarzida talaffuz qiladi. Natijada qishloq nomi Kogon tarzida aytila boshlanadi.

Quyidagi keltirilgan beshta ma`lumotdan faqatgina so’nggi beshinchi ma`lumot asosli va ishonarlidir. Kogon toponimi haqida fikr ketganda “**somon koni**” manosida talqin etish va tushuntirish zarur.

Kogon tumani Buxoro viloyatidagi tuman bo’lib, tuman markazi Kogon shahri hisoblanadi. Buxoro viloyatidagi faqatgina ikkita shahar ma`muriy jihatdan viloyatga bo’ysinuvchi shahar hisoblanadi. Shundan bittasi Kogon shahridir.

Bugungi kunda Kogon tumanida 2 ta shaharcha (Tutikunda, Sarayonobod), 21 ta mahalla fuqarolar yig’ini (MFY), 129 ta qishloq aholi punktlari va Sarayon, Oybek nomli qo’rg’on mavjud (3-jadval). Tumandagi MFY lar tumanning geografik mehnat taqsimotida har biri alohida o’rin tutadi.

*3- jadval*

#### **Kogon tumanining ma`muriy-hududiy tuzulishi. Mahalla fuqarolar yig’inlari nomi, manzili va ularda yashovchi aholi soni (Kogon shahrisiz 2017-yil dekabr)**

T/r	MFY nomi	Tuzilgan vaqtি	Axoli soni kishi	Joylashgan manzili
1	Yangihayot MFY	1967 yil	2 493	Turkman o’g’li qishlog’i
2	Sarayon MFY	1972 yil	4 182	Sariyon qishlog’i
3	Nurafshon MFY	1968 yil	3 463	Cho’kati qishlog’i
4	Niyozxoji MFY	1969 yil	6 735	Niyozxoji qishlog’i
5	Bahouddin Naqshband MFY	1965 yil	4 270	Bahouddin Naqshband ko’chasi
6	Beklar MFY	1966 yil	3 240	Katta machit qishlog’i
7	Kogon MFY	1961 yil	2 690	Kogon qishlog’i
8	Xo’jayakshaba MFY	1968 yil	5 103	Xo’ja Yakshaba qishlog’i
9	Siyozpoyon MFY	1972 yil	2 923	Siyozpoyon qishlog’i
10	Navro’z MFY	2003 yil	2 576	Siyozpoyon qishlog’i
11	Geofizika MFY	1992 yil	7 185	Konchilar ko’chasi
12	Suxor MFY	2003 yil	2 575	Yangi-Hayot qishlog’i

13	O'bacho'li MFY	2003 yil	4 875	O'ba cho'li qishlog'i
14	Tun Iroq MFY	2003 yil	3 520	Tun iroq qishlog'i
15	Sorgun MFY	2003 yil	3 387	Kogon qishlog'i
16	Tutkunda MFY	2002 yil	4 782	Tutkunda qishlog'i
17	Mustaqillik MFY	2005 yil	2 035	Ko'rak qishlog'i
18	Istiqlol MFY	2005 yil	4 182	Sho'robod qishlog'i
19	Hukumatobod MFY	2005 yil	2 730	Hukumatobod qishlog'i
20	CHoloki MFY	2007 yil	2 333	Qasri Orifon qishlog'i
21	O'rtacho'l MFY	2006-yil	1643	Janafar qishlog'i
Tuman bo'yicha jami: 21 ta			<b>76 922</b>	

*Jadval Kogon tuman mahalla bo'limi ma'lumotlari asosida tuzildi*

Kogon tumanida 2018-yilga qadar QFY lar ham mavjud bo'lgan. Biroq **Kogon tumani hududidagi qishloq fuqarolar yig'inlarini qayta tashkil etish yo'lli bilan mahalla fuqarolar yig'inlariga aylantirish to'g'risida** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagagi PF-4944-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli qarori, tumandagi qishloq fuqarolar yig'inlarining 2017-yil 1-maydagi yig'ilish qarorlari va tuman hokimi nomiga kiritgan iltimosnomalarini ko'rib chiqib, xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi qaror qabul qiladi. Kogon tumanidagi qishloq fuqarolar yig'inlari o'z navbatida mahalla fuqarolar yig'inlaridan, mahalla fuqarolari yig'inlari esa qishloqlardan, qishloqlarda xonadonlar, xonadonlarda esa tuman aholisi mavjud. Quyidagi chizma orqali tuman qishloq fuqarolar yig'inlariga kiruvchi mahalla fuqarolar yig'inlarining tarkibi keltirilgan (1-chizma).

*1-chizma.*

### Kogon tumanida 2018 – yilga qadar mavjud bo’lgan QFY va MFY lar nomi

<b>QFY lar nomi</b>	<b>QFY larga kiruvchi MFY nomi</b>
Xo'jayakshaba	• Tun iroq
Nurafshon	• Tutikunda • O'rtacho'l
Yangihayot	• Suxor • Mustaqillik
Kogon	• Sorg'un
Sarayon	•
Beklar	• Istiqlol
Niyoz Hoji	• O'ba cho'li • Cho'loki
Siyozpoyon	• Navro'z
Bahouddin Naqshband	• Hukumatobod • Geofizika

**Kogon shahri** Kogon tumanining ma’muriy markazi bo‘lib, 1935-yilgacha Yangi Buxoro deb atalgan. 1929 yildan shahar maqomida bo‘lib, temiryo‘l tuguni hisoblanadi. Viloyat markazi Buxoro shahridan 12 km janubi-sharqda, Buxoro—Qarshi avtomobil yo‘li yoqasida joylashgan. Shahar 220 m balandlikdagi tekis yerda joylashgan. Eng sovuq oyning o‘rtacha harorati  $0.6^{\circ}\text{C}$ , eng issiq oynining o‘rtacha harorati  $29.6^{\circ}\text{C}$  ga teng. Yiliga o‘rtacha 125 mm yog‘in yog‘adi. Xargush kanalidan suv oladi. Shahar maydoni **15,25** km<sup>2</sup>. Aholisi 60 164 kishi bo‘lib, asosan o‘zbeklar,

shuningdek, tojik, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholisining aksariyat qismi temiryo'1 transportida ishlaydi.

Shahar sanoat tarmoqlarining shakllanishi Buxoro amirligi davrida mahalliy aholi kuchi bilan qurilgan (1888-yil) Zakaspiy (Krasnovodsk — Toshkent) temiryo'lining Yangi Buxoro orqali o'tishi bilan bog'liq. 1920-yillargacha shaharda yog‘ zavodi qurilgan, toshbosma (unda Narshaxiyning «Buxoro tarixi» va boshqa asarlar bositgan), temiryo'1 idorasi qoshida maktablar, paxta firmalari, turli savdo banklarining bo'limlari ochilgan. Keyingi davrda yangi sanoat korxonalari va madaniy obyektlar qurildi. Gazli—Kogon gaz quvuri o'tkazildi, 1959 yilda gaz kompressor stansiyasi barpo qilindi.

Shaharda tarixiy-me'moriy yodgorliklardan Shohmasjid, Shohinajib (Zirobod) masjidlari, Buxoro amiri Abdulahadxonning 1894-1903 yillarda Yevropa va Sharq uslublarini uyg‘unlashtirib qurdirgan hashamatli saroyi saqlanib qolgan.

Shaharda 1902-yilda Markaziy Osiyodagi birinchi tatar maktabi ochildi.

Kogon shahriga keladigan bo'lsak, shaharda 21 ta mahalla fuqarolari yig'ini (MFY) mavjud bo'lib, bu mahallalar 4 sektorga bo'linib joylashtirilgan (4-jadval). Har bir sektor rahbari o'ziga qarashli bo'lган MFY uchun javobgar hamda o'z MFYlarini nazorat qilib boradi. Tuman hamda shahardagi MFY lar tashkil topgan sanasi, aholi soni, aholisining milliy va tarixiy turmush darajasi, hududi jihatidan bir biridan farq qiladi. Kelgusida sanoat korxonasi bo'ladimi, madaniyat va ta'lim sohasi bo'ladimi shu jihatlarini inobatga olib tashkil qilish lozim.

*4-Jadval*

#### **Kogon shahrining ma`muriy-hududiy bo'linishi**

MFY lari nomi	MFY lari nomi	MFY lari nomi	MFY lari nomi
I. Shahar hokimi sektori	II. Shahar prokurori sektori	III. Shahar IIB boshlig'i sektori	IV. Shahar DSİ boshlig'i sektori
Bunyodkor	Furqat nomli	Arabxona	Maxtumquli
A.Navoiy nomli	A.Qodiriy	Ziyokor	Zirobod
Bobur nomli	Buxoroi S.Harif	Adolat	Xo'jabargi

A.Temur nomli	Beruniy nomli	Temir yo‘lchi	Navzirobod
Istiqlol	Turkiston	Do‘stlik	
Ulug‘bek nomli		Mustaqillik	

Jadval Kogon shahar hokimligining statistika bo‘limi ma‘lumotlari asosida tuzildi

## 2.2 Tuman aholisi va mehnat resurslari

Tuman aholisining tarkib topishi uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Kogon tumani va shahrida jami aholi 133 464 kishi (2017-yil 1- iyun holati bo‘yicha) mavjud bo‘lib, shundan 73 300 nafari tuman hududida, 60 164 nafari Kogon shahrida istiqomat qiladi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Buxoro viloyati tumanlari ichida G’ijduvon, Shofirkon, Jondor, Qorako’l, Buxoro, Romitan tumanlaridan so‘ng 7-o‘rinda turadi (5-jadval).

5-jadval

### Buxoro viloyati tumanlarida aholi soni (ming kishi hisobida)


T/r	Tumanlar	Yillar					
		2003	2004	2005	2006	2007	2013
1	G’ijduvon tumani	233,7	236,7	239,6	242,9	230,3	275,0
2	Shofirkon tumani	131,8	133,6	135,6	138	129,5	158,0
3	Jondor tumani	123,1	124,7	126,8	128,8	121,2	152,2
4	Qorako’l tumani	121,9	123,5	125,3	126,8	120,1	145,3
5	Buxoro tumani	112,0	113,5	116,1	118,4	110,0	143,8
6	Romitan tumani	105,5	106,6	108,4	109,6	104,2	124,8
7	<b>Kogon tumani</b>	<b>108,2</b>	<b>108,7</b>	<b>109,9</b>	<b>110,8</b>	<b>107,5</b>	<b>124,4</b>
8	Peshko’ tumani	86,4	87,9	89,4	91,0	84,7	107,5
9	Vobkent tumani	103,8	105,0	106,5	107,8	102,4	123,5
10	Olot tumani	73,7	74,8	75,9	76,8	72,5	87,8
11	Qorovulbozor tum	14,1	13,9	13,7	13,4	13,9	15,9

Jadval Buxoro viloyat statistika bosh boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tuzildi

Tuman aholisi tuman hududi bo‘ylab notekis taqsimlangan. Aholi asosan markaziy hududlarda zinch o‘rnashgan. Tumanning janubiy tomonlarida esa ancha siyrak o‘rnashgan. Aholining o‘rtacha zichligi  $1 \text{ km}^2$ ga 254 kishiga to‘g’ri keladi (tumanning o‘zida 144 kishi). Bu ko‘rsatkich viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan (42,4

kishi) deyarli olti marta yuqori. Kogon tuman aholisining zichligini viloyatning boshqa tumanlari bilan solishtirsak, quyidagi holatning guvohi bo'lamiz. 2016-yil ma'lumoti bo'yicha  $1 \text{ km}^2$  maydonga Vobkentda – 397,4, Kogonda – 238,6, Buxoro tumanida – 98,6, Romitan tumanida – 92,5 kishiga teng. Aholi zichligi bo'yicha Kogon tumani viloyat tumanlari orasida Vobkent tumanidan so'ng 2 – o'rinda turadi.

Tuman aholisining milliy tarkibiga nazar soladigan bo'lsak, jami aholining 92 % ni o'zbeklar, 3 % ni tojiklar, 2 % turkmanlar va qolgan 3% ni qozoqlar, ruslar, tatarlar, eroniylar va boshqa millat vakillari tashkil qiladi (5-a rasm).



**5-rasm. Kogon tumani (a) va shahrining (b) milliy tarkibi**

*Kogon tuman va shahar statistik ma'lumotlari asosida tuzildi*

Kogon shahri misolida aholining milliy tarkibini ko'radigan bo'lsak, shaharda 75.1 % aholi o'zbek millati, 10,94 % aholi rus millati, 7,54 % ni tojik millati tashkil etadi. Kogon shahri va tumani aholisining milliy tarkibini taqqoslaganda tuman hududida o'zbek millati ko'proq kishini tashkil etadi. Shahar hududida esa nisbatan kamchilikni tashkil etadi (75,1 %), rus va tojik millatlari umumiyligi aholining 20 % ga yaqinini tashkil etadi (5-b rasm). Shaharda "Ozarbayjon madaniyat uyi", "Bratskiy Magila" rus cherkovi kabilarning mavjudligi o'zbek va boshqa millat vakillarining og'a-ini bo'lib yashayotganlardan dalolat beradi (6-jadval).

*6-jadval*


#### **Kogon shahri aholisining milliy tarkibi:**

T/R	Millatlar	2018 yil 1 yanvar xolatida	Foiz xisobida
-----	-----------	----------------------------	---------------

		(kishi)	
1.	O‘zbeklar	45143	75.1
2	Qoraqalpoq	20	0.03
3	Ruslar	6583	10.94
4	Ukrainlar	472	0.78
5	Kozoklar	225	0.37
6.	Tojiklar	4542	7.54
7	Tatarlar	1201	1.99
8	Ozarboyjonlar	513	0.85
9	Koreys	66	0.1
10	Beloruslar	145	0.24
11	Turkmanlar	190	0.31
12	Qirg‘iz	12	0.01
13	Boshkalar:	1052	1.74
	<b>J A M I :</b>	<b>60164</b>	<b>100.0</b>


*Ma'lumotlar oldingi yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati yakunlariga nisbatan olingan*

Aholi tarkibiga jins va yosh jihatdan yondashish katta ahamiyatga ega. Chunki aholini va inson omilini takror ishlab chiqarish xuddi ana shu jihatlarga bog'liq. Kogon tumani aholisining jinsiy tarkibida jinslar orasida katta tafovut yo'q. Jami aholining 49,9 % (36 630 kishi) erkaklar, 50,1 % (36 670 kishi) ayollar tashkil etadi (2017-yil 1-iyun). Kogon shahri aholisining jinsiy tarkibiga qaraydigan bo'lsak, shahar aholisining 29 193 nafari (48,5 %) erkaklar qolgan 30 971 nafarini (51,5 %) ayollar tashkil etadi. Bu ma'lumotdan ko'rinish turibdiki Kogon shahrida ayollar erkaklarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi (6-rasm).




**6-rasm. Kogon tumani (a) va shahri (b) aholisining jinsiy tarkibi**

Tumanda aholi tabiiy ko'payish hisobiga ko'paymoqda. Tuman aholisi 2017-yil ma'lumoti bo'yicha, 8,3 ming tug'ilish, 5 ming o'lim, tabiiy ko'payish esa yiliga 3 300 kishiga to'g'ri keladi (7-rasm). Bunday tabiiy ko'payish ancha yuqori hisoblanadi. Masalan, tuman aholisi 2013-yilda 65,7 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilga kelib 72,6 ming kishiga yetdi.



**7-rasm. Kogon tumani aholisining tug'ilish va o'lim ko'rsatkichi**

Kogon shahri misolida ko'radian bo'lsak bir yil davomida 1006 ta tug'ilish, 325 ta o'lim qayd etilgan. Shaharning tabiiy ko'payishi esa 681 kishiga teng (8-rasm).




**8-rasm. Kogon shahri aholisining tug'ilish va o'lim ko'rsatkichi**

Tuman va shahar aholishining bir yil davomidagi umumiyo ko'payishini quyidagi rasmida o'z ifodasini topgan (9-rasm).




**9 -rasm. Kogon tumani va shahri aholisining tabiiy, mexanik hamda umumiy ko'payishi (2017 yil ma'lumoti bo'yicha)**

Tumanning migratsion holati minus ko'rsatkichga ega. Tumanga bir yil davomida kelganlar soni 1 795 kishi, ketganlar soni esa 2 736 kishini tashkil etadi. Migratsiya saldosi ko'rsatkichi minus 968 kishiga teng (10-rasm).



**10-rasm. Kogon tumanining migratsiya darajasi**


Kogon shahrida esa bu nisbatan pastroq ko'rakichga ega. Ya'ni, minus 296 kishiga teng (11-rasm). Buning asosiy sababi tumandagi sanoat korxonalarining asosiy qismi shahar hududida joylashganligidir.



**11-rasm. Kogon shahrining migratsiya darajasi**

Tuman aholisining yosh tarkibini ko'radigan bo'lsak, aholisining (73 300 kishi) 19 454 nafari 14 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi. Bu jami aholining 26% ni tashkil qiladi. Tumanda mehnat resurslari esa 44 000 nafarni tashkil etadi (60%). Qolgan aholi esa nafaqa va pensiya yoshidagi aholi hisoblanadi (12-a rasm).

Kogon shahrida esa 14 yoshgacha bo'lgan yoshlar shahar jami aholisining 19 840 nafarini tashkil etadi. Bu jami aholining (60 164 kishi) 34 % ga teng. Shahar aholisining mehnat resursi esa 35 121 kishini tashkil etadi bu jami aholining 58 % ga demakdir (12-b rasm). Kogon tumani va shahrida mehnat resurslari jami aholining yarmidan ortiqrog'ini tashkil etadi. Bundan ko'rinish turibdiki kelgusida xo'jalik sohalarini joylashtirishda ko'p mehnat talab korxonalarini qursa bo'ladi.



**12-rasm. Kogon tumani (a) va shahri (b) aholisining yosh tarkibi**

Kogon tumani jami aholisining 60 %i (43980 kishi) mehnatga layoqatli aholi tashkil qiladi (2017-yil). Xalq xo'jaligi tarmoqlarida bandlik har xil bo'lib, bu talab va ehtiyojdan kelib chiqadi. Tumanning iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar soni 34,4 ming kishi bo'lib, jami aholining 47 % ga teng.

Iqtisodiyotda band aholining teng yarmi sanoat va qishloq xo'jaligida band. Bunda tumanga xos jihatlardan biri sanoatda band aholining qishloq xo'jaligida band aholidan ustunligidir. Bu tumanda sanoat korxonalarining nisbatan ko'pligi va yirikligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari Kogon shahrining transport tuguni

ekanligi tuman aholisi tarkibida transportda band aholining umumiyligini bandlikning yuqori pog'onalarida bo'lishini taminlagan.

Olingan statistik ma'lumotlarga ko'ra uy-joy kommunal xo'jaligi va maishiy xizmatda band aholi ko'rsatilmagan. Tuman aholisining iqtisodiyotda bandligi ming kishi hisobida va foizda 7-jadvalda keltirilgan.

*7-jadval*

### **Kogon tumanining iqtisodiyotda band aholisi**

Iqtisodiyot tarmoqlari	Ming kishi	% da
Sanoatda	9,3	27
Qishloq xo'jaligida	7,9	23
Savdo, umumiyligini ovqatlanish moddiy ta'minot, tayyorlov korxonalarida	5,9	17,1
Boshqa soha va tarmoqlarda	3,78	11
Qurilishda	2,9	8,4
Xalq ta'limida	2,5	7,2
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot	1,0	3
Transportda	0,7	2
Boshqaruv organlarida	0,3	0,8
Aloqada	0,07	0,2
Madaniyat va sa'nat	0,04	0,1
Sug'urta, moliya, va nafaqa jami	0,01	0,02
Uy-joy kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat	0	0
<b>Jami</b>	<b>34,4</b>	<b>100</b>

*Jadval Kogon tuman statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzildi*

Jadvaldan ko'rinish turibdiki iqtisodiyotda band aholining asosiy qismi sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, umumiyligini ovqatlanish, moddiy ta'minot, tayyorlov

korxonalarida band. Madaniyat va san'at hamda sug'urta-moliya tizimida bu ko'rsatkichlar ancha past.

Kogon tumani mehnat resurslarining taqsimlanishi bo'yicha viloyatda yetakchilardan hisoblanadi. Bu borada ko'rsatkich ming kishiga 150 kishidan ortiq. Iqtisodiy faol aholi 67,8 ming kishini, iqtisodiy nofaol aholi 16,9 ming kishini tashkil etadi. Viloyat bo'yicha mehnat resurslarining taqsimlanishida tumanning salmog'i 8,3 % ni tashkil etadi. Bu borada viloyatda 6-o'rinda turadi.

### **2.3 Tumanning sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari**

Azal-azaldan o'zining hunarmandlik, tadbirkorlik fazilatlari bilan dong taratgan Buxoro ahli iqtisodiyotimizda tobora katta o'rinni egallayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ham muhim natijalarga erishmoqda.

Kogon tumani aholisining xo'jaligi o'troq dehqonchilik madaniyatining markazi sifatida uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, dastlab kichik qishloq sifatida, keyinchalik Buxoro-Qarshi yo'naliishida savdo karvonlarining muhim bo'g'ini sifatidagi ahamiyati ortib bordi. Kogonning dastavval qishloq sifatida vujudga kelib, keyinchalik qulay geografik o'rni tobora muhim ahamiyat kasb eta borganligi tabiiy holdir. Tuman aholisining xo'jaligini o'rganganda, albatta uning o'tmishda qanday tarzda bo'lganligi bilan tanishish kerak. Kogonliklarning xo'jaligi, asosan, hozirgi kunga qadar 3 davrni o'z ichiga oladi.

Birinchi davr qadim o'tmishdan to XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar bo'lган davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda aholining asosiy xo'jaligi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish, chorvachilik bilan shug'ullanish hamda hunarmandchilikdan iborat bo'lган. Hunarmandlar asosan kulolsozlik, oynasozlik, temirchilik, beshikchilik, egarchilik, tegirmonchilik, matolarga naqsh solish hamda teri oshlash bilan shug'ullanishgan.

Ikkinci davr XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 90-yillariga qadar bo'lган davrni o'z ichiga oladi. Bu davr asosan Kogonning Buxoro amirligining yarim mustamlakasiga aylantirilishi, temiryo'l qurilishi va shu orqali katta shaharlar bilan aloqa bog'lanishi, paxtani qayta ishslash, don mahsulotlari tayyorlash va gaz

sanoati bilan bog'liq. Dastlab Zakaspiy (Kaspiy orti) temir yo'li deb yuritilgan O'rta Osiyo temir yo'li qurilishi munosabati bilan 1888-yilga kelib, bu yerda yashayotgan rus ma'murlari, katta va kichik savdogarlar, hunarmandlar, temiryo'l ishchi va xizmatchilar soni tobora ortib boraverdi. Mahalliy aholi esa temir yo'l, yengil, yoqilg'i sanoati korxonalari, qurilish materiallari va transport tarmoqlarida ishlashgan. Mahalliy xomashyolarning asosan chetga tashib ketilishi va korxonalarining texnik jihatdan eskirishi xo'jalik tarmoqlarida yangi davrni olib keldi.

Uchinchi davr 1991-yildan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda O'zbekistonning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Kogon tumanida ham bir qancha o'zgarishlar, yangilanishlar yuz berdi. Ko'plab eskirgan sanoat korxonalari va muassasalar rekonstruksiya qilinib, yangilari qurildi.

Buxoro viloyati iqtisodiyotida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda Kogon tumani 9 % ni tashkil etadi. Bu borada Qorovulbozor tumani va Buxoro shahridan so'ng 3-o'rinda turadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda esa tumanning ulushi 7,6 %. Bunda faqatgina Olot, Qorovulbozor tumanlari va Buxoro shahridan oldinda turadi.

Sanoat - milliy iqtisodiyotning moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi muhim tarmog'idir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida texnika taraqqiyoti sanoatga bog'liq. Sanoatning rivojlanishi bilan yangi aholi punktlari, transport yo'llari vujudga keladi. Qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo-sotiqning taraqqiyot darajasi o'sadi, sanoatning rivojlanishi bilan tabiatdan foydalanish ham jiddiy o'zgaradi.

Sanoat, qisqacha aytganda, asosan tabiatdan olingan xomashyoga qayta ishlov berish natijasida o'zining dastlabki holatini o'zgartirgan mahsulot turlarini o'z ichiga oladi. Dastlabki sanoat tarmoqlari bevosita tabiat va uning resurslari bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, tog'-kon sanoati, o'rmon, qurilish materiallari sanoati shular jumlasidandir. Hozirgi davrda sanoat korxonalari va ular yaratadigan mahsulot nihoyatda xilma-xil.

Hozirgi vaqtda tuman sanoatida qurilishbop materiallarni qazib chiqarish (g'isht zavodlari, devorbop materiallar), paxta tozalash, oziq-ovqat sanoati, tikuvchilik va to'qimachilik sanoati yetakchilik qilmoqda. Shu bilan birga

mashinasozlik va metallni qayta ishlash, yengil sanoat, tikuv-trikotaj, un-yorma sanoat tarmog'lari ham mavjud. Sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha (mlrd so'mda) viloyat tumanlari 4 guruhga ajratilsa, Kogon tumani Romitan tumani bilan birqalikda ikkinchi guruh (100-200 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi) ga mansub.

Yoqilg'i sanoati. Elektroenergetika. Tuman hududidan gaz va neft quvurlari, 200 kvt li asosiy elektr uzatish liniyalari o'tgan. Quyimozor podstansiyasi bor.

Tumanda 2137 (Kogon shahrida 549) ta xo'jalik yurituvchi subyektlar mavjud bo'lib, 103 (Kogon shahrida 80) tasi davlat mulki shaklida, qolgan 2034 (Kogon shahrida 469) tasi nodavlat mulki shaklida faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkichni Buxoro viloyati misolida solishtiradigan bo'lsak, viloyat nodavlat korxonalarining (13 511 ta) 18,5 % i, davlat korxonalarining (2344 ta) esa 8 % i Kogon tumani va shahrida joylashgan.

Kogon tumanidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning 155 tasini (Kogon shahrida 97 ta) sanoat korxonalari tashkil etadi. Kogon tumani va shahrida sanoat korxonalari Buxoro viloyatidagi sanoat korxonalarning 12 % egallaydi. Tumanning sanoat korxonalarda 9300 nafar (Kogon shahri bilan birqalikda 13 300 kishi) aholi ish bilan band. Bu esa tuman iqtisodiyotida band jami aholining 27 % ni tashkil etadi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning pullik hajmi 277 mlrd 518,7 mln (Kogon shahrida 321,9 mlrd so'm) so'mni tashkil etdi (2017-yil 1-iyun). Shundan 112,323 mlrd so'mlik mahsulotni, ya'ni 40 % i xalq iste'moli tovarlari tashkil etadi. Vaholanki, bu ko'rsatkich 2012-yilda 103 mlrd 132 mln bo'lган va 2,5 baravarga o'sgan. Bu qiymatni Buxoro viloyati ulushida ko'radigan bo'lsak, viloyatda 5569,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Kogon tumanida Kogon shahri bilan birqalikda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining hajmi, viloyat hajmining 10,7 % ni egallaydi hamda Qorovulbozor (1580,9 mlrd. so'm) va Buxoro (960,8 mlrd. so'm) shahridan so'ng uchinchi o'rinda turadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev viloyatimizga tashriflari chog`ida "Buxoro shahri, Vobkent, Kogon, Qorako'l, G'ijduvon tumanlarida yuqori texnologiyaga asoslangan tayyor tekstil mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonala tashkil qilish

hisobiga viloyatda paxta tolasini qayta ishlash darajasi bugungi kundagi 29 foizdan 2021- yilga borib 55 foizga yetkaziladi” degan edilar.

**Kogon paxta tozalash AJ** korxonasi 1898-yilda qurilib ishga tushirilgan. Korxonada bir mavsumda 36 000 tonna paxta xomashyosi qabul qilinib, qayta ishlanadi. Korxona quvvatidan to’liq foydalanish maqsadida mavsum (sentabr-may oylari) so’ngida paxta xomashyosi Qorovulbozor va Xo’ja-Yakshaba paxtani saqlash omborlaridan ham jo’natiladi va qayta ishlash orqali korxonada tola, chigit, momiq, o’lik va pux kabi mahsulotlar tayyorланади. Korxonada 387 kishi ish bilan band bo’lib, ularning 35 % ni (135 kishi) ayollar tashkil etadi (4-ilova).

O’tgan asrning 30-40-yillarida korxona hududida tola ishlab chiqaruvchi ikki liniyali kichik korxona faoliyat ko’rsatgan. Birinchi liniya faqat uzun tolali paxtani qayta ishlashga moslashgan. Bu liniya 1940-yilgacha faoliyat ko’rsatgan. Korxonanning ikkinchi liniyasi 1930-yillarning o’rtalarida to’liq qayta qurilgan va Kogon paxta tozalash korxonasining keyingi bosqichidagi rivojlanishlariga asos bo’lgan.

Keyingi yillarda paxta tozalash sanoatida yangi serunum uskunalarining yaratilishi, paxta tozalash korxonasini qayta qurish, qayta jihozlash zaruriyatini tug’dirdi. 1955-yilda korxona 31 ming tonna tola ishlab chiqargan. Mahsulot ishlab chiqarishning bu darajada ko’tarilishiga asosiy sabab og’ir qo’l mehnati bilan bajarilayotgan ishlarning to’liq mexanizatsiyalashganligi bo’ldi.

XX asr boshida qurilgan ikki qavatlari korxonaning bosh binosi hozirgi zamon talablariga javob bermay qoldi, ya’ni sexlar tor, past bo’lib, vibratsiya, shovqin, changlik, yorug’lik darajalari me’yor darajasidan bir necha marta yuqori bo’lib qolgan edi. Endi korxonani tubdan qayta qurish zaruriyatni tug’ilib qoldi. “Buxoropaxtasanoat” hududiy aksiyadorlik birlashmasi ushbu masalani yechishda yordamlashishni so’rab “O’zpaxtasanoat” uyushmasiga murojaat qildi.

Oldindan ishlatilib kelinayotgan chigit ombori binosi qayta qurildi va bosh bino uchun moslashtirildi, yonida esa 18x30 metr o’lchamda press sexi qad rostladi. Bosh binoda joylashgan sexlardagi chang va shovqinlar darajasini kamaytirish uchun eng kam transport sistemasini qo’llagan holda quritish-tozalash, jin-lenter sexlari

alohida qilib to'siqlar bilan ajratildi. Umuman, korxonani tubdan qayta qurish va boshqa chora tadbirlarni amalga oshirish natijasida korxonaning ishlab chiqarish, sifat va samaradorlik bo'yicha barcha ko'rsatkichlari kutilganidan ortiq natija berdi. Masalan, tola chiqimi 1999-yilga nisbatan 1,8% ga o'sib, 2002 – yil hosili bo'yicha 33,9 % ni tashkil etdi. Jumladan, past navli paxtalar bo'yicha shu yillar ichida IV nav paxta xomashyosi bo'yicha 3,9 %, V nav paxta xomashyosi bo'yicha esa 7,3% o'sishga erishildi. Chigit chiqimi esa 45,2 % dan 52,5 % ga ko'tarildi (7,3 % ga). Ishlab chiqarish maydonlari 40 % ga, uskunalarning elektr talabchanligi 30 % ga kamayib, chang havo chiqadigan manbalar siklonlar soni kamayishi natijasida korxonaning ekologik holati yaxshilandi. Kirish darvozasi va tarozixonalar, yordamchi sexlar qayta qurilib, korxonaning umumiyoq ko'rinishi batamom o'zgardi.

Korxona hududida bino va inshootlardan bo'shagan barcha hududlarda bog' va gulzorlar tashkil etilib, ishlab chiqarish, paxta qabul qilish, tushirish va asrash bilan bog'liq joylarga asfalt yotqizilib, obodonlashtirish ishlari bajarildi. Kogon paxta tozalash korxonasida elektr energiya sarfi 5 146 tonna kVt-soat bo'lган bo'lsa, modernizatsiyadan keyin bu ko'rsatkich 4 361 tonna kVt-soatga tushdi, ya`ni 785 tonna kVt-soatga teng energiya iqtisod qilindi.

**“Kogon yog” AJ** zavodi tumanning Kogon shahrida joylashgan bo'lib, 15,035 hektar maydonni egallaydi. Korxonada asosan “Kogon paxta tozalash” zavodidan chiqqan chigitni qayta ishlab, rafinatsiyalangan paxta moyi, dizedaratsiyalangan paxta moyi, xo'jalik sovuni, paxta shroti, paxta sheluxasi va paxta soapspogi kabi tayyor mahsulot ishlab chiqariladi. Korxonada hozirgi kunda 570 kishi ish bilan band. Korxonaning umumiyoq yillik quvvati 140 000 tonna texnik chigitdan moy ajratib olish hisoblanadi. Bundan tashqari zavodning yordamchi xo'jaligida 150 bosh qoramol va sog'in sigirlar boqiladi (5-ilova).

Korxona tarixiga keladigan bo'lsak, dastlab 1888-1900 –yillarda Peterburglik yahudiy millatiga mansub ishbilarmon badavlat tadbirkor Moisey Plaksman boylik orttirish niyatida Buxoro amirligiga safar qiladi. XX asrning boshida deyarli bir vaqtning o'zida Namangan, Andijon va Kogonda yog' zavodlari qurilishiga kirishildi. Markaziy Osiyoda tashkil topgan “Besh-bosh” aksionerlik jamiyati beshta yog' ishlab

chiqarish zavodlari qurilishini boshladi. Moisey Plaksman Kogonda bu ishni o’z qo’liga oldi. U o’z zavodini qulaylik uchun temir yo’l shaxobchasi yaqinida qurdi. Ko’p o’tmay maishatga berilgan Moisey Peterburglik ishbilarmon aka-uka Andreyevlarga o’z yog’ zavodini atigi bir soatga qartaga yutqazadi. Endi zavodning yangi xo’jayinlari paydo bo’ladi. O’sha 1915-yillarda zavod har kecha kunduzda 5-7 tonna paxta yog’i ishlab chiqarib, uning asosiy qismi Rossiyaga jo’natila boshladi. Mahalliy aholi esa amirlik, tuman va qishloqlarda o’rnatilgan kichik moyjivozlarda ishlab chiqarilgan zig’ir moyidan foydalanar edi. Andreyevlarning ishi juda a`lo darajada edi, biroq Nikolay podsholigining ag’darilishi ularning barcha orzu umidlarini chil-parchin qildi. 1920-yilda Furunze boshchiligidagi qo’shinlar Buxoroni ishg’ol qilganda ko’pchilik boy va mahalliy zodagonlar qatori rus mulkdorlari ham xorij mamlakatlariga ketib qoldilar. Aka-uka Andreyevlar ham xuddi shunday qilishdi. Zavod bolsheviklar qo’liga o’tdi va unga mahalliy bolsheviklardan biri Pyotr Gerasimovich Anashevskiy tayinlandi. Shu tariqa korxona rahbarlari o’zgarib hozirgi kunda Sharipov Ne`mat korxona raxbari lavozimida ishlab kelmoqdalar.

**“Kogondonmahsulotlari” AJ** tumanning Kogon shahrida joylashgan. Korxona O’zdonmahsulotlari AK (aksionerlik kompaniyasi) ga qarashli bo’lib, 1956-yilda tashkil topgan. Korxona 4,8 hektar yer maydonida joylashgan bo’lib, 134 kishini ish bilan ta`minlaydi va viloyatning Kogon va Qorovulbozor tumanida yetishtirilgan don mahsulotlarini qabul qiladi. Korxonada dondan 1-navli “Gench” uni hamda “Omuxta yem” ishlab chiqariladi. Ushbu aksionerlik jamiyatni O’zbekiston Respublikasi Davlat Mulk qo’mitasining 1995-yil 19-iyun 413-sonli buyrug’i bilan mulkchilik shaklini o’zgartirib, ochiq turdagil hissadorlik jamiyatiga aylantirilgan. Korxonaning asosiy ishlab chiqarish sexlari: tegirmon 1 ta, omuxta yem sexi 1 ta va elevator 1 ta joylashgan. Korxona tarkibida uchta: Kogon, Jarqoq, Qorovulbozor don qabul qilish punktlari mavjud. Korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvati 23 000 tonna tegirmon quvvati va 9 000 tonna omuxta yem hisoblanadi (6-ilova).

“Kogondonmahsulotlari” OAJ 2012-yilda 28167 tonna boshqoli don qabul qilindi. Shundan 11872 tonnasi Kogon, 10623 tonnasi Qorovulbozor, 5672 tonnasi

Jarqoq don qabul qilish punkiti ulushiga to'g'ri keladi. Korxonada don zararkunandalariga qarshi kimiyoiy ishlov beriladi. Korxonada 2008-yilda modernizatsiya ishlari bajarilib, tegirmonga Turkiyaning “Gench-degirmon” kompaniyasining yangi jihozlari o’rnatilib, hozirda sifatlari un mahsuloti ishlab chiqarilmoqda. Modernizatsiyagacha un ishlab chiqarish miqdori 13316 tonna bo’lsa, modernizatsiyadan so’ng bu ko’rsatkich 17728 tonnaga yetkazildi va ishlab chiqarish hajmi 4412 tonnaga oshdi. Xuddi shuningdek, kombikorma ishlab chiqarish 2602 tonna bo’lsa, modernizatsiyadan keyin 7321 tonnaga yetkazildi. Ushbu ishlab chiqarish natijalarining o’sishi natijasida elektr energiyasi tejaldi.

**Buxoro viloyat “Suvoqova” DUK Kogon shahar filiali** davlatga qarashli korxona bo’lib, 1953-yilda tashkil topgan. Korxonada hozirgi kunda 100 kishi mehnat qilmoqda. Korxonaning asosiy vazifasi Kogon shahar aholisini to’liq hamda Kogon tumanining O’ba Cho’li, Suxor, Niyoz Hoji, Beklar MFY lar hududlaridagi aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta`minlash. Kogon tumanining qolgan hududlaridagi aholiga ichimlik suvi Buxoro viloyat “Suvoqova” DUK tomonidan uzatiladi. Tumanning markazlashgan ichimlik suvi yetib bormagan qishloqlarga: O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 25-fevraldagi 41-sonli “Respublika aholi punktlarini sifatlari ichimlik suvi bilan ta`minlash yuzasidan qo’shimcha chora-tadbirlar tog’risida” gi qarori bo’yicha maxsus ichimlik suvi tashish texnikalari, 3 ta tarktor bilan yetkazib berilmoqda. “Kogonsuvoqova” suv uzatish inshootida 5 ta nasos o’rnatilgan bo’lib, inshootning quvvati kuniga 96 000 m.kub (7-ilova).

Buxoro viloyat “Suvoqova” DUK Kogon shahar filialining vazifalari:

1. Aholi va ishlab chiqarish korxonalarini ichimlik suvi bilan ta`minlash, oqava suvini tozalash va uning birlamchi inshootlarini ta`mirlash;
2. Suvni tozalash, zararsizlantirish, birlamchi inshootlarni yurgizish va ta`mirlash;
3. Aholi va korxonalarga naqd yoki pul ko’chirish yo’li bilan suv ulagichlar o’rnatish;
4. Kapital va joriy ta`mirlash, neft, gaz, suv quvurlari qurish, ularni joriy va kapital ta`mirlash
5. Transpor xizmati ko’rsatish

**Kogon magistral gaz quvurlar boshqarmasi** 1963-yilda tashkil topgan, korxonaning asosiy vazifasi gazni transportirovka qilishdan iborat bo'lib, ya'ni Muborakdan keladigan gazni turli nasoslar yordamida turli hududlarga taqsimlash. Jumladan Kogon tumani va shahriga ham gaz aynan anashu korxona tomonidan taqsimlanadi. Korxonadagi ishchi va xodimlarning umumiyligi soni 320 kishi, shu jumladan ayollar 23 kishidan iborat. Hozirgi kunda korxona tasarrufida avtovtransport va mexanizmlar soni 50 tani tashkil etadi (8-ilova).

Korxona beshta bo'limga bo'lib faoliyati tashkil etilgan:

Tarmoqdan foydalanish xizmati (LES) bo'limi, barcha yo'nalishlar bo'ylab yuqori bosimli magistral gaz quvurlarini bir maromda to'xtovsiz, xavfsiz ishlashini ta`minlaydi.

Gaz taqsimlash stansiyasi (GTS) bo'limi, iste'molchilarga gazni bir maromda, xavfsiz yetkazib berishni ta`minlaydi.

Elektrokimyo himoya (EKH) bo'limi, yuqori bosimli magistral gaz quvurlarining korroziyalanishdan elektr kimyoviy himoyasini ta`minlaydi.

Elektr suv ta'minoti (EST) bo'limi, boshqarmaning elektr va suv ta'minotini ta`minlaydi.

Kompressor stansiyasi (KS) bo'limi, magistral gaz quvuridagi yuqori bosimli gazni siqib berishni ta`minlaydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev viloyatimizga tashriflari chog`ida “Qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa sohalarda kelgusi 5 yilda umumiyligi 323 milliard so'mlik 442 ta loyiha amalga oshiriladi. Shular qatorida, 2017-yilda Kogon shahridagi “Maks Bilding” qoshma korxonasida 1,5 million dollar sarmoya evaziga yiliga 10 ming tonna gips aralashmasi va gipsokarton ishlab chiqaradigan yangi quvvatlar ishga tushiriladi” deya ta'kidladilar. Hozirgi vaqtida quyidagi qurilish sanoati korxonalari bor:

**“Knauf Gips Buxoro” MChJ xorijiy korxonasi.** Tuman hududida gipsokarton mahsulotlari ishlab chiqaradigan “Knauf Gips Buxoro” MChJ xorijiy korxonasi mahsulotlari xaridorligi bilan ajralib turadi. Korxonaning asosiy ishlab chiqaradigan mahsuloti qurilishbop materiallardan gipsokarton mahsulotlari va gips

xomashyosi hisoblanadi. Ushbu korxona Kogon shahri hududida joylashgan. 2000-yil may oyida “Buxoroqurilishmateriallari” va “Buxorotemiryo’lmarmar” davlat korxonalari faoliyati tugatilib, uning o’rnida yagona “Buxorogips” OAJ tashkil topadi. 2005-yil sentabr oyida Germaniyaning “KnaufInternational” kompaniyasi tomonidan 30,3% aksiyalari tenderda yutib olinadi. Hamda 2006-yildan boshlab esa qo’shma korxona sifatida faoliyat yuritib kelyapti. Hozirgi kunda korxonaning 99,56 % aksiyalari Germaniyaning “KnaufInternational” kompaniyasiga, 0,44 % aksiyalar yuridik va jismoniy shaxslarga qarashlidir. Korxonada gips mahsulotlari va xomashyosi tayyorlanadi.

Ushbu korxona haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham o’z ma’ruzalarida ta’kidlagandilar: “Mana shu investitsiyalar tufayli Buxoro tarixan qisqa vaqt ichida mamlakatimizdagi yirik sanoatlashgan hududlardan biriga aylandi. Jumladan, mamlakatimiz iqtisodiyotining faxri bo’lgan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Gazli neft-gaz majmuasi, “Daewoo tekstil Buxoro”, “**Knauf gips Buxoro**” kabi yirik korxonalar bunyod etildi. Eng muhimi, minglab buxoroliklar, o’zimizning farzandlarimiz uchun zamonaviy ish o’rinlari yaratilmoqda.

**“Knauf Gips Buxoro” MChJ xorijiy korxonasi.** Tuman hududida, Buxoro-Qarshi magistral yo’li yoqasida gipsokarton mahsulotlari ishlab chiqaradigan “Knauf Gips Buxoro” MChJ xorijiy korxonasi mahsulotlari xaridorligi bilan ajralib turadi. Korxona 18 hektar maydonda joylashgan bo’lib, asosiy ishlab chiqaradigan mahsuloti qurilishbop materiallardan gipsokarton mahsulotlarini hisoblanadi. Korxonaning 99,9 % aksiyalari Germaniyalik investorlarga qarashli(9-ilova).

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o’z ma’ruzalarining birida 2017-2021 yillarda respublikada qattiq maishiy chiqindilarni sanitar tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi tayyorlanishi, ushbu dasturda kelgusi besh yilda qattiq maishiy chiqindilarni sanitar tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish belgilanishi, jumladan, Buxoro viloyatidagi sanitary-tozalash va obodonchilik tashkilotlari 2017-yilda qo’shimcha ravishda 20 ta maxsus mashinalar bilan ta’milanishi, bularning barchasi Buxoro viloyati aholisining hayoti yanada obod,

farovon va fayzli bo'lishiga hissa qo'shishini aytib o'tgandilar. Shu so'zlar isboti Kogon tumanida qurilgan chiqindilarni saralash va qayta ishlash zavodidir.

**"Aholi Trans" chiqindilarni saralash va qayta ishlash zavodi.** Kogon tumanining Beklar MFYda 2012-yilda chiqindi yig'ish xizmati ko'rsatadigan korxona ish boshlaydi.

Prezidentimiz joriy yil 10-11-mart kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida qator bunyodkorlik ishlari, jumladan, ushbu loyiha bilan tanishib, qurilish ishlarini yanada takomillashtirish bo'yicha zarur ko'rsatmalar bergen edi. Korxonaga tumandagi foydalanilmay yotgan bo'sh inshootlar investitsiya kiritish majburiyati bilan "nol" qiymatda berildi. Sharhnomaga ko'ra, 1,6 milliard so'm mablag' sarflanib, yordamchi binolar ta'mirlandi, 5,5 milliard so'mlik investitsiya kiritilib, zavodning asosiy ishlab chiqarish binolari qurildi (10-ilova).

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki viloyat filiali tomonidan ajratilgan 970 ming dollar miqdoridagi kredit hisobiga loyihaning birinchi bosqichi nihoyasiga yetkazildi. Korxonada 2017-yilda Xitoy Xalq Respublikasidan bir kunda 400 tonna chiqindini saralash quvvatiga ega uskuna hamda saralangan mahsulotlarni qayta ishlash maqsadida 8 ta uskuna keltirib o'rnatiladi va shundan keyin korxona to'liq maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash korxonasi sifatida ish boshladidi. Korxona 20 hektar hududda joylashgan bo'lib, hozirgi kunda 150 nafar aholini ish bilan ta'minlayapti. Korxonada avtogaраж va avtomashinani yuvish joylari mavjud bo'lib, tasarrufida 68 ta maxsus avtotransport, jumladan 50 dan ziyod yuk transporti, shuningdek, yuklagich ekskavatorlari va boshqa texnika vositalaridan iborat transport bo'linmasi bor.

Korxonada saralangan chiqindilardan ko'mir biriketi, RDF yoqilg'i, qog'oz, karton, sellofanni qayta ishlab granula olish, plastmassani qayta ishlab plastik idishlar, qurilish chiqindilarini qayta ishlab qurilish bloklari va g'ishtlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Zavodning chiqindilarni saralash korxonasida konveyer asosida dastlab og'ir jismlar – metall, tosh va shisha, so'ngra yaroqsiz rezina va avtoshinalar, yog'och-taxta bo'laklari, qipiqlari, shox-shabba va xazon, makulatura, qurilish chiqindilari,

plastmassa idishlar, yaroqsiz va qiyqim matolar saralanadi. Liniya bir kecha-kunduzda 450 tonnagacha chiqindini qabul qilish quvvatiga ega. Barcha jarayonlar to‘liq va yarim to‘liq avtomatlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Loyiha asosida 40 ish o‘rni yaratildi.

Loyihaning nafaqt iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyati katta. U Buxoro va Kogon shaharlari, Buxoro, Kogon tumanlarida hosil bo‘ladigan turli maishiy chiqindilarni qayta ishlash orqali mazkur hududlardagi atrof-muhit va aholi salomatligini muhofaza qilish, sanitariya holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ayni paytda korxonada loyihaning ikkinchi navbatini ishga tushirish ishlari jadal davom etmoqda. Bu yerda Prezidentimizning joriy yil 21-apreldagi “2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida chiqindilarni qayta ishlash liniyasi barpo etilmoqda.

Loyihaning ikkinchi bosqichini amalga oshirish uchun Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki viloyat filiali tomonidan 3 million 920 ming dollar miqdorida ajratilgan kreditga xorijdan bosqichma-bosqich zamonaviy qayta ishlash texnologik uskunalar keltirib o‘rnataladi. Montaj va sozlash ishlari yakunlansa, bu yerda chiqindilardan isitish qozonxonalarida foydalaniladigan muqobil piroliz yoqilg‘isi, briket, sintetik tola, qog‘oz karton, to‘qimachilik matosi, pishgan g‘isht, biogumus va boshqa mahsulotlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Natijada yana 300 ga yaqin ish o‘rni yaratiladi.

**Tuman qishloq xo‘jaligi.** Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev viloyatimizga tashriflari chog‘ida mavjud yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ko‘ptarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, irrigatsiya-melioratsiya tizimini yaxshilash, tumanlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, meva-sabzavot, uzum hamda poliz mahsulotlarini ko‘paytirish, zamonaviy texnologiyalar asosida issiqxonalar tashkil etish kabi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilanishini aytib o’tgan edilar.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng qadimgi tarmoqlaridan biri. U hozirgi kunda jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibida yetakchi o'rirlarni egallaydi. Biz hozirgi rejada mintaqaviy tarkibini ko'rib chiqamiz.

Odatda, qishloq xo'jaligi deganda, asosan, uning ikki tarkibi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik tushuniladi. Bu iqtisodiyot fani nuqtai nazaridan to'g'ri, ammo iqtisodiy geografik jihatdan esa, uni qishloq aholisining mashg'uloti, xo'jaligi ma`nosida ham e`tirof etish mumkin. Tabiiyki, qishloq joylarda ham bu tarmoq turlanib, diversifikatsiyalanib, shu bilan bir qatorda, sanoat, transport, rekratsiya, turizm, ijtimoiy sohalar ham keng tarqalmoqda.

Kogon tumani iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rirlardan birini egallaydi. Qishloq xo'jaligida paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik va bog'dorchilik yetakchilik qiladi. Kogon tumanining umumiylar maydoni 51 051 ga bo'lib, shundan 26 492 ga ri (52 %) qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlardir. Miqdor jihatdan keyingi o'rirlarda fuqarolar foydalanadigan yerlar va zahira yerlari tashkil etadi.

2017-yil 1-yanvar ma'lumoti bo'yicha tumanda 424 ta fermer xo'jaligi bo'lib, 311 tasi paxta-g'allachilik fermer xo'jaligi, 70 tasi chorvachilik fermer xo'jaligi, 41 tasi bog'dorchilik fermer xo'jaligi va 2 tasi boshqa turdag'i fermer xo'jaliklaridan iborat. 2016-yilda qishloq xo'jalik mahsulotlarining amaldagi narxlari 284 mlrd 61,1 mln so'm ni tashkil etgan, bu sanoat mahsulotlaridan 7 mlrd so'm ko'p demakdir.

Xo'jalik toifalari bo'yicha barcha qishloq xo'jalik ekinlari ekin maydonining taqsimlanishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, fermer xo'jaliklari 14,4 ming ga, dehqon xo'jaliklariga 1,4 ming ga, qishloq xo'jalik korxonalariga 0.7 ming ga ekin ekiladigan yer to'g'ri keladi. 2012-yilda tumanda 162,3 mlrd so'mlik qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

**Dehqonchilik.** Tumanda paxta-g'allachilik fermer xo'jaligining ko'pligidan bilish mumkinki, qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotida dehqonchilik yo'nalishi ustun turadi. Tumanda asosan sug'orma dehqonchilik qilish keng tarqalgan. Sug'oriladigan yerlarning umumiylar maydoni 17 983 hektar bo'lib, qishloq xo'jalik yerlarining 70 % ga yaqin qismini egallaydi.

*Donli ekinlar.* Bu soha dehqonchilikda katta o'rin egallaydi. Donli ekinlardan asosan bug'doy, makkajo'xori, arpa va suv yaxshi bo'lgan hududlarda sholi yetishtiriladi. 2017- yilda tumanning 6 418 hektar yer maydoniga galla ekilib (viloyat galla ekin maydonining 7 %), 34 318 tonna hosil olingan (viloyat g'alla yalpi hosilining 5 %) va hosildorligi esa 60 sentner bo'lgan. Agar ushbu hosil besh yil odingi ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak kamayishning guvohi bo'lamiz (2012-yilda 36 000 tonna). Donli ekinlar ekiladigan yerlar maydoni esa nisbatan o'sgan (2012-yilda taxminan 6000 ga yerga donli ekinlar ekilgan). Don ekinlarining o'rtacha hosildorligi 58,6-60,6 s/ga tashkil etadi. Viloyat bo'yicha don ekinlarining yalpi hosilida tumanning ulushi bor-yo'g'i 6 % ni tashkil etadi. Bu borada Qorovulbozor tumani bilan birgalikda oxirgi o'rinda turadi. Hududda yetishtirilgan don mahsulotlarini Kogon sharidagi "Kogondonmahsulotlari" aksionerlik jamiyatni korxonasining tegirmonida bug'doy, un va non mahsulotlari tayyorlanadi.

*Paxtachilik.* Tumanda donli ekinlardan keyin paxtachilik turadi. 2017- yilda tumanning 7 032 hektar yer maydoniga paxta ekilib (viloyat paxta ekiladigan maydonlarining 6,5 %), 22 280 tonna yalpi hosil olingan (viloyat paxta yalpi hosilining ham 6,7 % i) va hosildorligi esa 30,9 sentner bo'lgan. 2012-yil ko'rsatkichlari bilan solishtirsak 2012-yilda paxta hosili 23 ming tonnani, ekin maydoni 6 ming ga ni, o'rtacha hosildorlik 30-33 s/ga ni tashkil etgan. Viloyat bo'yicha paxta yalpi hosilida tumanning ulushi 7 % ni tashkil etadi. Bu borada Qorovulbozor tumanidan oldinda turadi. Tumanda yetishtirilayotgan paxta Kogon shahridagi "Kogon paxta tozalash" zavodida qayta ishlanadi va paxtadan ajratilgan chigitni esa shahar yaqinidagi "Kogon yog"" zavodiga jo'natilib, yog' vasovun mahsulotlari, chorva mollari uchun yem tayyorlanadi.

*Sabzavotchilik va polizchilik* tumanning deyarli barcha hududlarida yetishtiriladi. Asosan tuman hududining garbiy va shimoliy tomonlarida hosildorligi yaxshi. Shunday bo'lishiga qaramasdan sabzavot ekinlarining hosildorligi Buxoro viloyatining boshqa tumanlariga nisbatan past ko'rsatkichga ega. Jumladan har hektariga o'rtacha 240-255 sentner to'g'ri keladi. Tumanda 2017-yilda yetishtirilgan sabzavot mahsulotlarining yalpi hosili 24 843 tonna tashkil etdi. Bu viloyatda

yetishtirilgan hosilning 4 % demakdir. Bu borda ham faqat Qorovulbozor tumanidan oldinda turadi.

Poliz ekinlariga keladigan bo'lsak, tuman poliz ekinlarining hosildorlik darajasi har gektarida 230 sentnerdan kam. Bu jihatidan viloyatning boshqa tumanlari orasida eng past ko'rsatkichga egadir. Poliz ekinlarining yalpi hosili esa 1000 tonnadan ortiqroq. Bu viloyatda yetishtirilgan poliz ekinlarining 3 % demakdir. Poliz ekinlarining yalpi hosilida viloyatda oxirgi o'rinda turadi.

*Kartoshka yetishtirish* bu jihatidan tuman viloyatning boshqa tumanlari orasida eng yuqori o'rinda turadi, ya'ni kartoshkaning hosildorligi har gektarida 295 sentnerdan ortiq. Kartoshkaning yalpi hosili 16 810 tonna bo'lib, viloyat yalpi hosilining 8,5 % demakdir.

*Uzumchilik* tumanda hosildorligi har gektarida 130 sentnerdan kam bo'lishiga qaramasdan (viloyatdagi eng past ko'rsatkich) nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan. Tumanda 300 gektar uzumzorlar mavjud bo'lib, uzumning yalpi hosili esa 3 700 tonnani tashkil etadi. Bu viloyatda yetishtirilgan uzum yalpi hosilining 3% demakdir.

Meva-rezavor ekinlarning maydoni tumanda 700 ga ni tashkil etadi. Hosildorlik 220 s/ga dan kam emas. Viloyat bo'yicha meva –rezavor ekinlarining yalpi hosilida Kogon tumanining ulushi atigi 2 %. Bu borada faqatgina Qorovulbozor tumanidan oldinda turadi.

**Chorvachilik** qishloq xo'jaligining ikkinchi asosiy tarmog'i hisoblanadi. Uning hissasiga respublikamiz qishloq xo'jaligi mahsulotining turli yillarda 40-45 % to'g'ri keladi. Chorvachilik dehqonchilik bilan uzviy bog'liq, ular qadimdan o'zaro aloqador holda rivojlanib kelgan. Dehqonchilik, jumladan, ozuqa ekinlarini yetishtirish, yem-xashak bazasini yaratish chorvachilik uchun xizmat qiladi. Shuningdek, sug'orma dehqonchilik va bog'dorchilik rivojlangan hududlarda ham ma'lum darajada chorvachilikning sut-go'sht yo'nalishi yo'lga qo'yilgan bo'ladi.

*Qoramolchilik* chorvachilikning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. U aholini eng muhim oziq-ovqat turi, ya'ni sut va go'sht bilan ta'minlaydi. 2017-yil 1-yanvar ma'lumoti bo'yicha, Kogon tumanining barcha toifadagi xo'jaliklarida 83 893 bosh qoramollar bo'lib, shundan 29 198 boshini sigirlar tashkil etadi. Bu ko'rsatkichni

Buxoro viloyati misolida solishtiradigan bo'lsak, viloyat qoramollarining 2,5 % demakdir. Shunday bo'lishiga qaramasdan tuman hududida 70 ta chorvachilik fermer xo'jaliklari mavjud.

Tumanda *qo'y va echkilarni* boqish ham rivojlangan. Qo'y va echkilar asosan hududning janubiy, sharqiy va shimoliy tomonlarida ko'plab boqiladi. Tumanda ularning umumiyligi soni 133 963 boshni tashkil etadi. Bu viloyat qo'y va echkilarning 6,5 % i demakdir. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bahor va yoz fasllarida tuman ichki bozorini ta'minlash uchun Qashqadaryo viloyatining cho'lli, dashtli hududlaridan ham qo'y va echkilar ko'plab keltiriladi.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda 1000 ga yaqin *cho'chqalar* boqiladi. Bunda asosiy hissa dehqon xo'jaliklari (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan) ga to'g'ri keladi. Tuyachilik rivojlanmagan.

Tuman hududida *otlarning* umumiyligi soni 155 boshni tashkil etadi va viloyat otlari sonining 3,5 % ini egallaydi. Buning asosiy ko'rsatkichi aholi xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Otlar asosan tumanning chekka qishloqlarida nisbatan ko'p boqiladi. Bunga asosiy sabab, u yerlarda antropogen ta'sir kam ekanligi.

Kogon tumanida *parrandachilik*, xususan, tovuq boqishga ham katta e'tibor berilmoqda. Tabiiy holda parrandachilik g'alla ekiladigan dalalarda qulay imkoniyatlarga ega bo'ladi. Biroq so'nggi yillarda bu soha sanoat asosida, ya`ni parrandachilik firmalarini tashkil etish negizida rivojlanib bormoqda. Tumanda 2017-yil yanvar ma'lumoti bo'yicha, jami 1 216 919 bosh parranda bo'lgan. Shuning 966 514 boshi qishloq xo'jaligi korxonalarida, 14 039 boshi fermerlarda va 236 366 boshi esa aholi xo'jaliklarda boqiladi. Bu ko'rsatkichlar viloyat parrandalari sonining 32 % i demakdir. Bunga asosiy sabab tuman hududida 7 ta yirik parrandachilik fabrikasining mavjudligidir.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodiga qarashli bo'lган parrandachilik fermasi, Kogon tumanining Beklar MFYda 2014 – yilda Ukraina texnologiyalari asosida ish boshladi. Korxona hududi 5 hektar joyda joylashgan bo'lib, 35 kishi ish bilan band. Korxona xo'jaligi tuxum tug'adigan tovuqlar yetishtirishga ixtisoslashgan. Bugungi

kunda bu yerda 30 000 tuxum tug'adigan tovuqlar parvarish qilinib, 90-95 % tuxum olinadi.

Bundan tashqari ushbu fabrika atrofida 3 ta parrandachilik korxonasi joylashgan bo'lib, ular asosan xususiy korxonalardir.

"Ko'hna Buxoro Qurilish" MCHJga qarashli "Buxoro Sof Parranda" parrandachilik fabrikasi 2017- yilda o'z faoliyatini boshladi. Bu korxona 4 hektar hududda joylashib, hozirgi kunda 16 kishi ish bilan band. Korxonaning ixtisosligi go'sht beradigan tovuqlar boqishdir. Bu yerda bir yilda 360 000 dona jo'ja, 280 tonna tovuq go'shti olinadi.

Tumandagi tovuq fabrikalarining eng yirigi Sarayon MFY da joylashgan "Buxoroparranda" AJ korxonasi hisoblanib, XX asrning 60-yillarida ishga tushgan. Hozirgi kunda bu yerda 300 000dan ziyod tuxum tug'adigan tovuqlar boqiladi (11-ilova).

Tumanda pillachilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, yetishtirilgan pilla xomashyosi 2017- yilda 136 tonnani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich viloyatda yetishtirilgan pillaning 2,5 % i demakdir. Keying yillarda pillachilik unumdorligini oshirish maqsadida dalalar atrofida tut ko'chatlari ekilmoqda.

Asalarichilik. 2017-yil 1-iyun holatida tumanda 1725 asalari qutisi mavjud bo'lib, asalarichilik xo'jaligida 40 quti, fermer xo'jaliklarida 412 quti, aholi xo'jaliklarida 1273 quti asalari bor.

Baliqchilikning turli xo'jaliklarida 217 tonna baliq yetishtiriladi. Shundan 34,5 tonnasi baliqchilik xo'jaliklari, 166,7 tonnasi qishloq xo'jaligi korxonalari, 18,3 tonnasi fermer xo'jaliklari va 86 tonnasi aholi xo'jaliklariga to'g'ri keladi (8-jadval).

### **Tumanda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rtaskichlari**

<b>CHorvachilik mahsulotlari</b>	<b>O'chov birligi</b>	<b>Barcha xo'jaliklarda toifadagi</b>	<b>shu jumladan:</b>			
			<b>Fermer xo'jaliklari</b>	<b>Dehqon xo'jaliklari (aholining shaxsiy yordamchi)</b>	<b>Qishloq xo'jalik korxonalarini</b>	
go'sht	tirik vaznda, tonna	16535	92	15662		781
Tuxum	ming dona	76997	202	3780		73015
Jun	tonna	93	1	82		10
Qorako'l teri	<b>dona</b>	22602	566	9341		12695
<b>Asal</b>	<b>tonna</b>	17	6	10		1

*Jadval Buxoro viloyat statistika bo'limining to'plami asosida tuzildi*

#### **2.4 Tumanning transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari, tumanda ijtimoiy sohalarning rivojlanishi**

Taniqli rus olimi N.N. Baranskiy fikricha, yo'llar va shaharlar har qanday hududning iqtisodiy asosini ("qovurg'asini") tashkil qiladi. Chindan ham, ayni ular birgalikda hududning iqtisodiy salohiyatini, geografik jihatdan o'zlashtirilganlik darajasini yoki, boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotning "geografik geometriyasini", iqtisodiy geografik asosini o'zida aks ettiradi.

Transport sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan farqli ravishda biron-bir mahsulot ishlab chiqarmasa-da, ishlab chiqarishning rivojlanishida juda katta o'rinni tutadi. Transport yo'lovchilar va yuklarni tashish orqali hududlar bo'yishiga geografik mehnat taqsimotining chuqurlashuviga imkon yaratadi. U hududlararo iqtisodiy va madaniy aloqalarning yuksalishida muhim rol o'ynaydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Hududiy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturi ishlab chiqilmoqda. Ta'kidlash kerakki, ishlab chiqilayotgan ushbu dasturda xalqaro va davlat ahamiyatidagi yo'llar bilan birga, viloyat, mahalliy va shahar avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish, ularni ta'mirlash va zarur darajada saqlanishini ta`minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko'zda tutiladi", - deya ta'kidlagandilar. Bu ishlar Kogan tumanida ham amalga oshirilmoqda.

Kogon tumanining rivojlanishi bevosita transport geografik o'rnining qulayligi bilan belgilanadi. Kogon tumani va shahri aholisining xalq xo'jaligida transportning, ayniqsa, temiryo'lning ahamiyati nihoyatda katta. 2017-yil yanvar holatiga ko'ra, Kogon shahri va tuman aholisining 4500 nafarga yaqini transport tarmoqlarida yil davomida ish bilan band. Bugun O'zbekistonga chetdan olib kelinadigan va chiqariladigan yukning 30 % i Kogon temir yo'l deposi zimmasiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston hududiga birinchi bo'lib 1888-yilning 26-fevralida, Kogon shahri atrofidagi Amirobod bekatida Buxoro amiri Sayyid Bahodir Abdulahadxon, temir yo'l generali Annenkov, Rossiya hukumati vakolatxonasining boshlig'i Charikovlar mezonligida birinchi poyezd qabul qilingan. Xullas, Kogon mamlakatimizda temir yo'l kirib kelishining debochasi bo'ldi.

Sobiq Ittifoq Temir Yo'llar ministrligining 1946-yil aprel oyidagi qaroriga asosan, O'rta Osiyo temir yo'l boshqarmasiga qarashli Kogon bo'limi tashkil topgan va 1963-yildan boshlab, "O'rta Osiyo temir yo'lining Buxoro bo'limi" deb qayta nomlangan. Kogon bo'limi tuzilgan paytda u Chorjo'y-Samarqand, Kogon-Qarshi-Kitob oralig'idagi temir yo'llarni o'z tasarrufiga olgan.

1994-yil noyabr oyida O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston temir yo’llari” davlat hissadorlik kompaniyasi tashkil etildi. Bu kompaniya Toshkent, Farg’ona, Buxoro, Qarshi, Qo’ng’iroq kabi bo’limlarni o’z ichiga oladi.

Buxoro, Navoiy, Samarand va Jizzax viloyatlariga xizmat qiluvchi, janubdan qo’shni Turkmaniston hududigacha yetuvchi temir yo’llar Kogon shahrida joylashgan Buxoro bo’limi tasarrufiga kiradi.

*Buxoro-1 stansiyasi.* Bugungi kunda nafaqat O’zbekistonda, balki butun O’rta Osiyoda yirik saralash stansiyalaridan biri darajasiga ko’tarilgan, yuqori mexanizatsiyalashgan va eng yangi texnologiyalar bilan jihozlangan. Buxoro-1 stansiyasining yoshi bir asrdan oshgan. Buxoro-1 stansiyasi va Kogon vokzal binosi 1903-yilda bunyod etilgan bo’lib, bora-bora bu stansiya yirik yuk punktiga aylanib borgan. Asta-sekin stansiya atrofida tovar omborlari qad rostlay boshlagan (12-ilova).

1916- yilda Kogon stansiyasi to’rt temir yo’l yo’nalishiga ega bo’lgan uzel bekatiga aylantirilgan. 1965-1971- yillarda stansiyani qayta qurish ishlari olib borildi. 1973- yilda masofa-rele markazi foydalanishga topshirildi.

*Buxoro lokomotiv deposi.* 1888-yilning 26-fevral kuni poyezdning kelishiga mezbonlik qilgan Amir Abdulahadxon va general Annenkovlar tantanali ravishda “Buxoro temir yo’l stansiyasi” va paravoz deposi qurilishlari poydevoriga birinchi g’ishtni qo’yishdi. Shundan so’ng qurilish ishlari jadal tarzda olib borildi. General Annenkov qurilish ishlarini shaxsiy nazoratiga oldi. Zero, Kogonda alohida paravoz deposiga ega bo’lmay turib, Buxoro amirligi bilan Rossiya markazi o’rtasida muntazam temir yo’l aloqasini ta’min etish mushkul edi.

1892-yilda yarim oy shaklidagi paravoz deposining qurilishi nihoyasiga yetdi. Hozirgi kunda piyodalar o’tadiga “baland ko’prik” ostida, tashqi ko’rinishi ancha o’zgartirilgan bu binoda omborxona joylashtirilgan. O’sha paytlarda esa bu Yangi Buxoroning (Kogon) eng gavjum joylaridan biri edi.

1917-yilda aynan depo mashinistlari boshchiligidagi “Yangi Buxoro ishchi soldat deputatlari Soveti” tashkil topdi. 1918-yil martida Kolesov janglarida qatnashgan depo ishchi va xizmatchilari “Yosh buxoroliklar” jadidlar partiyasi rahbarlari

Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat va Muhiddin Mansurovlarni ham amir sarbozlaridan, ham qizil askarlar fitnasidan himoya qilishdi.

O'sha yillarda Kogon lokomotiv deposida xizmat harbiylashtirilgan bo'lib, xizmatchilar tarkibi oddiy askarlar va ofitserlardan iborat edi. Deponing joyi bir necha marta o'zgardi. 1922-1925 yillarda u Qiziltepa stansiyasiga ko'chirildi. Undan keyingi yillar Amirobod stansiyasida faoliyat ko'rsatdi. 1931-yilda Kogon lokomotiv deposining bugungi kunda xizmat ko'rsatayotgan, qariyb 50 hektar maydonni egallagan zamonaviy binosi qurilishi yakunlandi.

1959-yilda Lokomotiv deposi tarixida birinchi marta o'zbek yigit Ismoil Jabborov depo rahbari lavozimiga tayinlanadi. Bu rahbarning jonkuyarligi, talabchanligi va tartib-intizomliligi tufayli Kogon lokomotiv deposi 1962-yilda ko'rsatgan ijobiliy natijalari uchun mamlakat temir yo'l depolari o'rtasida bayroq dor bo'ladi. Kogon lokomotiv deposi mehnat jamoasi 1988-yilda mamlakatda birinchi bo'lib to'la xo'jalik hisobiga o'tdi.

*Buxoro vagon deposi.* Depo Kogonda poyezd kelgan yillarda qurilgan bo'lib, 1947-yilgacha Chorjo'y temir yo'l stansiyasining 4-vagon uchastkasi deb yuritilgan. 1947-yilda Buxoro temir yo'l bo'limi tashkil etilgandan so'ng bugungi nomini olgan va mustaqil korxona sifatida shakllangan. Bu depo vagonlarni ta`mirlovchi va texnik xizmat ko'rsatuvg'chi bir necha sexlardan iborat.

*Buxoro yo'l masofasi korxonasi.* Bu korxona 1903-yilda tuzilgan bo'lib, Rossiya imperiyasining temir yo'l harbiylashtirilgan gornizonidan iborat edi. Bu yerda ishlovchi xodimlarning barchasi rus millatiga mansub bo'lib, mahalliy xalqni ishga olish qat'ian ta`qiqlangan edi. Korxona 1947-yilgacha "Kogon bo'limi" deb yuritilgan va Ashxobod temir yo'l bo'limiga qaragan. 1947-yilda Buxoro temir yo'l bo'limi tashkil topgach, uning ixtiyoriga o'tadi va "Kogon temir yo'l tashkiloti" deb yuritila boshlangan. 1973-yilda esa u yangi texnikalar bilan jihozlanib, Buxoro temir yo'llarni ta'mirlash tashkilotiga aylantirilgan.

*Harbiy qo'riqchilik xizmati.* Bugungi kunda "O'zbekiston temir yo'llari" davlat hissadorlik kompaniyasining Buxoro harbiylashgan qo'riqchilik otryadi Buxoro va Qarshi temir yo'llari orqali o'tadigan barcha yuk va yo'lovchi poyezdlari

xavfsizligini ta`minlab, Respublikamiz boyliklari va aholi osoyishtaligini ko'z qorachig'idek asrab kelmoqda.

*Mashina-hisoblash stansiyasi.* 1962-yilda ish haqini hisoblash uzel guruhi sifatida tashkil etilib, 1965-yilda hozirgi kundagi nomini olgan. 1983-yilda yangi texnikalar bilan ta`minlangan stansiyaning dasturiy ta`minotini Moskva transport muhandislari instituti o'z zimmasiga olgan edi. EHM bo'yicha kadrlarni esa Vilnyus va Odessa oliv o'quv yurtlari tayyorlar edi. 1991-yildan boshlab stansiyada eng yangi va yuqori unumdorlikka ega hisoblash kompleksi ishga tushirildi.

*Aloqa va signalizatsiya korxonasi yoki SHCh -9.* U 1933-yil 23-iyulda o'sha vaqtda O'rta Osiyo temir yo'lining tarkibiy bo'linmasi sifatida tashkil etilgan. Buxoro aloqa va signalizatsiya korxonasining asosiy vazifasini temir yo'l transportini kompleks texnik vositalari va sifatli aloqa bilan ta`minlash tashkil etadi.

*Ta`minot bo'limi.* Temir yo'lida ta`minot masalasi muhim ahamiyat kasb eta boshlagach, 1937-yil 1-martda "Yilmag" tashkil etiladi. 1939-yil 26-apreldan boshlab esa u "Ashxobod temir yo'li texnik-taminotining Kogon uchastka moddiy ombori" deb qayta nomlandi. 1958-yildan boshlab esa ushbu ta`minot korxonasi Buxoro temir yo'l bo'limining moddiy texnika ta`minoti bo'limiga aylantirildi. Bo'limning asosiy vazifasi-Buxoro temir yo'l bo'limi korxonalarini uzliksiz ehtiyyot qismlari bilan ta`minlab turishdan iborat.

Tumanda hozirgi kunda jami temiryo'l yo'naliшlarining umumiyligi 65 km ga yaqin. Tumanda ikkita razyezd mavjud bo'lib, ular №42 va №43 razyezdlardir. Kogon shahri temir yo'l markazi hisoblanib, u yerdan mahalliy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan qatnovlar yo'lga qo'yilgan. Bular: Toshkent-Urganch, Toshkent-Nukus-Qo'ng'irot, Buxoro-Qarshi-Kitob, Toshkent-Olot, Buxoro-Andijon-1, Buxoro-Termiz respublika ahamiyatidagi qatnovlar kiradi va ular Kogon temir yo'l stansiyasi orqali o'tadi. Bu yo'llar orasidan Buxoro-Miskent, Buxoro-Andijon-1 yo'llari elektrlashtirilgan.

Transport tarmoqlari orasida avtomobil transporti ham ahamiyati yuqoriligi bilan ajralib turadi. Avtomobil yo'llarining umumiyligi 230 km dan ortiq. Avtomobil transporti tumanni Buxoro shahri hamda qo'shni tuman markazlari bilan

bog‘laydi. Tuman hududidan xalqaro va respublika ahamiyatidagi avtomobil yo’llari o’tgan. Shundan xalqaro ahamiyatga ega bo’lgan Urganch - G’uzor avtomobil yo’lining 20 km ga yaqin qismi tuman hududidan o’tadi. Respublika ahamiyatidagi umumiyo’llar uzunligi 60 km ga yaqin bo’lib, ana shunday yo’llardan biri bo’lgan Kogon-Qiziltepa avtomobil yo’lining 20 km dan ortiq qismi tuman hududida joylashgan. Tumanda 2016-yil ma’lumoti bo’yicha avtomobil transportida yuk tashish hajmi 5 mln 707 ming tonna (viloyat yuk tashish hajmining 7 % i ni), yo’lovchi tashish esa 32 mln ga yaqin kishini(viloyat yo’lovchi tashish hajmining 8 % i ni) tashkil etgan.

Quvur transportidan asosan gaz va suv tashishda foydalaniladi. Quvur orqali gaz yoqilg’isi Muborak gaz konlaridan tuman hududidagi **Kogon magistral gaz quvurlar boshqarmasiga** keltiriladi hamda gaz bosim orqali aholiga, sanoat korxonalariga va bir qismi esa Rossiyaga jo’natiladi.

Bundan tashqari quvur orqali suv Quyimozor suv omboridan “Kogon Suvoqova DUK” ga keltiriladi va korxonaning suv uzatish inshootida tindirilib, ichishga yaroqli holga kelgandan so’ng aholi hamda sanoat korxonalariga yuboriladi. Jumladan, Jahon bankining 55 million dollarlik mablag’i hisobidan Buxoro va Kogon shaharlarida quvvati sutkasida 100 ming kubometrni tashkil etuvchi oqova suv tarmoqlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

O’zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o’rtasidagi munosabatlarning iliqlashuvi, har tomonlama aloqalarning o’rnatalishi Kogonning rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Chunki, Kogon Respublikamizning Turkmaniston va u orqali janubiy va janubi-g’arbiy Osiyo mamlakatlari, Qozog’iston orqali Rossiya va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan bog’lovchi tugunda joylashgan. Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi Kogonning transport funksiyasining yanada oshishiga olib keldi. Transport nafaqat mamlakat ichidagi vazifalarni bajaradi, uning tashqi iqtisodiy aloqalarini amalga oshirishda ham ahamiyati katta.

Tumanning makroiqtisodiy ko’rsatkichlari 2017-yil 1-iyun ma’lumoti bo’yicha tashqi savdo aylanmasi 47,7 mln AQSh doll (viloyat tashqi savdo aylanmasining 6,7

%), eksport 5,7 mln AQSh doll (viloyat eksportining 2,2 %), import esa 42 mln AQSh doll (viloyat importining 9,3 %)ni tashkil etdi.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish o'zaro bog'liq, uyg'unlashgan bo'lib, ularning mazmun mohiyatini alohida holda talqin qilib bo'lmaydi. **"Har qanday iqtisodiy rivojlanish pirovard maqsadda ijtimoiy maqsadlarni ko'zlaydi"**, - degan edi professor A. Soliyev. Bizning mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat ham, Respublikamiz Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlariga o'tishning asosiy tamoyillaridan biri ham ayni shu masalaga qaratilgan (ijtimoiy sohalarga davlat byudjetining 60 % ga yaqini ajratiladi). Qolaversa, 1996-yildan boshlab har bir yilga o'zgacha nom berish, shunga doir davlat dasturini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, aksariyat hollarda, bevosita ijtimoiy sohalarga bag'ishlangan. Jumladan, "Sixat-salomatlik", "Qariyalarni qadrlash", "Barkamol avlod", "Mustahkam oila", "Sog'lom bola" yillari fikrimiz dalilidir.

Ijtimoiy sohalarning iqtisodiyot bilan bevosita va bilvosita aloqadorligi ularni o'zaro muvofiqlashtirgan tarzda, ijtimoiy masalalarga ustuvorlik bergan holda rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, "iqtisodiy-ijtimoiy" emas, odatda, "ijtimoiy-iqtisodiy" rivojlanish deb yuritiladi, ya'ni bu yerda iqtisodiy taraqqiyotning strategik maqsadi ijtimoiy masalalarga yo'naltirilganligi ta'kidlanadi. Shu o'rinda, ijtimoiy tarmoqlar (savdo, ta'lim, sog'lijni saqlash, turli xil xizmatlar va boshqalar) bilan *ijtimoiy infratuzilma* o'rtasida farqlar borligini unutmaslik kerak. Infratuzilma, ya'ni ichki tuzulma ijtimoiy sohalar rivojlanishi va hududiy tashkil etishning negizi, asosi hisoblanadi, biroq ijtimoiy sohalar bilan ma`nodosh emas. Sababi, infratuzilma bevosita moddiy va ma`naviy boyliklar yaratmaydi, balki ular uchun sharoit muhayyo qiladi.

Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga asosan xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi korxonalar kiradi. Chakana savdo tovar aylanmasi 2017-yilga nisbatan 31,9 mlrd so'mni tashkil etib, uning tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mahsulotlari kiradi. jami chakana savdo aylanmasining yarmidan ko'pi bozorlar orqali amalga oshirilgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida chakana savdo va pullik xizmatlarning tadrijiy o'zgarishi, xususan, 2008-yillargacha oldingi yilga

nisbatan past bo'lib kelgan. 2008-yildan boshlab ijobiy natijalarni namoyon qilib borgan. Tumanda 2017-yilda jami xizmatlar sohasi 72,3 mldr so'mni, pullik xizmatlar sohasi esa 24,6 mldr so'mni tashkil etgan (9-jadval). Qabul qilinadigan yangi dasturda kelgusi besh yilda Buxoro shahri, Olot, Buxoro, G'ijdivon, Qorako'l, Rometan va Jondor tumanlarida bittadan, Kogon shahrida esa 2 dehqon bozorini rekonstruksiya qilish mo'ljallanmoqda.

*9-jadval*

### **Tumanda xizmat ko'rsatish va ijtimoiy infratuzilma ko'rsatkichlari**

Xizmat ko'rsatish turlari	%
-Savdo va umumiylar ovqatlanish	19,4
-Transport xizmatlari	11,1
-Aloqa va axborotlashtirish	4,4
-Moliya va bank xizmatlari	0,5
-Maishiy xizmatlar	4,5
-Avtomobil va texnika ta'mirlash xizmatlari	1,8
-Boshqa xizmatlar	58,3
<b>Jami:</b>	<b>100</b>

*Jadval Kogon tuman hokimligining statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tuzildi*

**Ta'lim.** Har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri **ta`lim** tizimidir. Bu soha, xususan, hozirgi sharoitda, intelektual omillar kuchli bo'lgan davrda katta ahamiyatga ega. Shu bois, respublika rahbariyati kelajakda barkamol avlodni, bizdan ko'ra dono, bilimli, zukko yoshlarni, tarbiyalash lozimligini alohida ta`kidlaydi. Ta`lim tizimining rivojlanishi mamlakatimizda 1997-yilda qabul qilingan va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan "Ta`lim tog'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida olib borilmoqda. Bu murakkab ijtimoiy soha maktabgacha ta`lim, umumta`lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta`lim muassasalarini o'z ichiga oladi.

Mustaqillik yillarida Kogon tumanida maktab va maorifga e'tibor kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagি

“2004-2009 yillarda maktab ta`limini rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori bu boradagi siyosiy harakatlarni rivojlantirdi.

Tumanda hozirgi kunda 1 ta Oliy Madrasa, 2 ta (Kogon shahrida 2 ta) kasb-hunar kolleji, 21 ta (Kogon shahrida 11 ta) umumta`lim maktabi (1 tasi ixtisoslashtirilgan umumta`lim maktabi), 8 ta (Kogon shahrida 14 ta) maktabgacha ta`lim muassasasi va 1 ta musiqa maktabi bor.

Mir Arab Oliy Madrasa O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2017-yil 7-iyundagi 21-son guvohnomasi bilan ro’yxatdan o’tgan. O’z faoliyatini Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasining oldingi muzey binosida, 2017-yil sentabr oyidan boshlagan (13-ilova). Bu yerda hozirgi kunda 60 nafar talaba turli viloyatdan kelib tahsil oladi. Qabullar O’zbekiston muslimmonlar idorasi va diniy qo’mita tomonidan tasdiqlangan tanlov asosida ikki bosqichda o’tkaziladi.

1. Og’zaki ijodiy
2. Test savollari

Bu yerda 14 ta ta’lim sohasi bo’yicha tahsil beriladi, shundan 10 tasi diniy bilimlar va 4 tasi dunyoviy bilimlar.

Tumandagi mavjud 2 ta kasb-hunar kolleji O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi “O’zbekiston Respublikasida o’rta maxsus kasb-hunar ta`limini tashkil etish chora tadbirlari to’g’risida”gi 204-sonli va 1998-yil 23-sentabrdagi “1999 – 2005 yillarda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag’ bilan ta’minlash dasturi to’g’risida ”gi 406-sonli qarorlari asosida tashkil etildi.

Tuman hududida “Qishloq xo’jaligi va xizmat ko’rsatish” va “Maishiy xizmat ko’rsatish” kasb-hunar kollejlari mavjud bo’lib, bu yerdagi talabalar soni 2284 tani tashkil etadi. Kollejda faoliyat yuritayotgan 88 nafar pedagog, ixtisosliklari bo’yicha jamiyatga mutaxassis tayyorlab beradi. Ikkita kasb-hunar kolleji ham o’z yotoqxonasiga ega bo’lib, uzoqdan qatnovchi talabalarga qulay sharoit yaratilgan.

2019—2020 o’quv yildan boshlab kasb-hunar kollejlariga umumta’lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilari ixtiyoriy ravishda o’qishga qabul qilinadi. Bu O’zbekiston Prezidentining «**Umumiy o’rta, o’rta maxsus va kasb-hunar**

**ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni** bilan belgilandi. Farmon Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 25-yanvarda imzolandi.

Tuman hududidagi 21 ta umumta`lim maktabi o’quvchilari 8800 nafarni tashkil etadi. Shundan 4438 nafari o’g’il bolalar, 4362 nafari qizlarni tashkil etadi. Bitiruvchi o’quvchilar soni esa 928 nafarni tashkil etib, o’quvchilarning kitob bilan ta`minlanganlik darajasi 99,2 %. Tuman maktablari o’qituvchilarining soni 725 nafarni tashkil etadi, ularning ma`lumotlilik darajasi esa (oily ma`lumotli) 79 % ni tashkil etadi.

Prezidentimizning 2016-yil 29-dekabrdagi “**2017-2021 yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** qarori ijrosi doirasida Buxoro viloyatida ham izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bolalar bog’chalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, yangilari barpo etilmoqda. Bugungi kunda Buxoro viloyatida 343 ta maktabgacha ta`lim muassasasi faoliyat ko’rsatmoqda. Shularning 22 tasi (6,5 % i) Kogon tumani va shahrida joylashgan. Tuman maktabgacha ta`lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar soni 616 tani tashkil etadi.

**Sog’liqni saqlash.** Ta`lim tizimi va sog’liqni saqlash har qanday jamiyatning ikki asosiy tayanchidir. “Sog’lom tanda - sog’ aql”, deyishadi. Bu haq gap, chunki inson uchun, uning barkamol rivojlanishi uchun, eng avvalo, sog’liq kerak. Ko’rinib turibdiki , salomatlik va ta`lim, ma`lumot olish o’zaro bir-biri bilan chambarchas bog’liq. Aynan shu sababdan ham respublikamiz rahbariyati aholi salomatligi masalalariga ustuvor e`tibor qaratmoqda.

Buxoro viloyatida ham kelgusi besh yilda G’ijduvon, Shofirkon, Buxoro, Romitan, Qorovulbozor va Kogon tumanlari tibbiyot birlashmalari tarkibidagi tug’ruq komplekslari va bolalar bo’limlari, Buxoro shahridagi klinik markazini rekonstruksiya qilish va jihozlash rejalashtirmoqda.

2017-yil ma`lumoti bo'yicha tumanda 19 ta tibbiyot muassasasi (Kogon shahrida 23 ta) mavjud bo'lib, 1 ta statsionar muassasa, 1 ta tuman markaziy kasalxonasi, 15 ta qishloq vrachlik punktlari (QVP), 1 ta stomatologiya poliklinikasi

va 1 ta tuman DSENMni tashkil etadi. Tuman markaziy kasalxonasining o'rinalar soni 160 kishiga yetadi. Tumandagi jami shifokorlar soni 138 ta, o'rtalikki tibbiy xodimlar soni 582 tani tashkil etadi.

**Rekreatsiya va turizm.** Rekreatsiya, ya'ni salomatlikni tiklash, umuman, charchoqni chiqarish, dam olish, sog'liqni saqlash tizimi bilan bog'liq. Shu bilan birga, bu sohaning rivojlanishiga aholining bo'sh vaqtini, moliyaviy holati kabi omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Turizmning O'zbekiston iqtisodiyoti rivojiga qo'shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ'ib qilish, shuningdek, valyuta zahiralarini to'ldirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni kuchaytirilishi zarur. Ikki yarim ming yillik tarixga ega Buxoro zaminidagi noyob me'moriy yodgorliklar, vohaning go'zal tabiatini butun dunyodan turistlarni jalb etishi uchun juda katta imkoniyatlarga ega". Bu vazifani hal qilish uchun Kogon tumanining turizm va rekreatsion imkoniyatlarini o'rganishimiz lozim.

Tumanda rekreatsya imkoniyatlari mavjud bo'lib, ayniqsa bunda "To'dako'l" suv ombori atrofidagi MFY lar alohida mavsumiy xususiyatga ega. Jumladan, Siyozpoyon MFY hududida rekreatsion zonalar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rekreatsiya bilan turizm bir-biri bilan yaqindan bog'liq; sayohat qilib dam olish, hordiq chiqarish ham, dam olib turib qisqa muddatli sayohatlar qilish ham kishiga ma'naviy boylik, xush kayfiyat va tansihatlik bag'ishlaydi. Tumanda mahalliy va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta. Bunda Bahouddin Naqshband, Sayyid Amir Kulol, Xo'ja Ka'bul Ahbor Vali ziyoratgohlari, hamda shahardagi Amir Abdulahadxon saroyi, Rus-provalslav cherkovi, Temiryo'lchilar muzeyi alohida o'rin tutadi.

**Sayyid Amir Kulol me`moray majmuasi.** "Suxor" MFYga qarshli Yangihayot qishlog'ida Sayyid Amir Kulol majmuasi joylashgan (14-ilova). Bu yerda Sayyid Amir Kulol (taxminan 1288-1370) –xojagon naqshbandiya silsilasining yirik namoyondasi, buxorolik yetti pirning oltinchisi yashaganlar. U kishi Xoja Muhammad Boboyi Samosiyidan tahsil olganlar. XV asrda qishloqning sharq

tomonida 41 pog'ona zina bilan chiqiladigan Mir Kulol jome masjidi barpo etilgan. Ammo 1937-yilda sovet hukumati topshirig'i bilan ushbu masjid buzib tashlangan.

Mustaqillikning dastlabki yillarda ziyyaratgohda katta jome masjidi qurildi. Sayyid Mir Kulol maqbarasi 1995-yilda Pokistonlik shayx Ma'ruf homiyligida barpo etildi. 1997-yil Buxoro viloyati hokimining tashabbusi bilan ushbu majmuada ta'mirlash ishlari boshlanib, 1998- yil aprel oyida nihoyasiga yetkazildi. 2007-yil mart oyida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan Sayyid Mir Kulol majmuasida qayta qurish ishlari boshlanadi va bu jarayon oktabr oyiga nihoyasiga yetkazildi. Joriy yilda ziyyaratgoh hududi qaytadan kompleks ta'mirlanyapti va ziyyaratgoh atrofida ko'p qavatli mehmonxona, avtomobil turargohi yangidan, ziyyaratgoh devorlari va darvozasi qaytadan qurilyapti. Hozirgi kunda qurilish ishlari jadal kechmoqda.

**Bahouddin Naqshband me'moray yodgorligi** Buxoro shahridan 10 km uzoqlikdagi "Qasri Orifon" qishlog'ida Bahouddin Naqshband me'moray majmuasi barpo etilgan. Bahouddin Naqshband 1318-yil Buxoro yaqinidagi "Qasri Hinduvon" (keyinchalik Qasri Orifon deb atalgan) qishlog'ida tug'ilib, 1389-yilda vafot etganlar. Naqshbandiya tariqatining asoschisi, buxorolik yetti pirning yettingchisi. Me'moray majmuaga Abdulazizzon ibn Ubaydullaxon tomonidan 1544-yilda asos solingan. Uning buyrug'i bilan qabriston va uning atrofi tartibga solinib, ansanbl shakliga keltirilgan va 1544-1545 yillarda kompleksning eng katta binosi-xonaqoh qurilgan. Kopleksning asosiy qismiga dahmalar, maqbara, ikkita masjid, sakxona , hovuz, quduq, minora, madrasa va Abdullaxon xonaqohi kiradi (15-ilova).

Kompleks kichik gumbazli chortoq darvozaxonadan boshlanadi. Yo'l davomida chapda xonlar mozori- Daxmai shohon va o'ngda kichkina masjid joylashgan. Dahmai shohon to'rtburchak, balandligi 2,5 metr, usti kulrang marmar bilan qoplangan. Marmarlarga tokchalar, ustunchalar, sharafalar, sarv suratlari va boshqa bezaklar o'yilgan. Dahmai shohondan o'tgach, yo'lak nafis bezatilgan peshtoqqa olib keladi. Peshtoqning eshididan o'tgach, unga gumbazli maqbara bor. Chapga kiraverishda 6 ustunli, oldi ayvonli oddiygina qilib qurilgan Muzaffarxon

masjidi joylashgan. Masjid yonida 2 ustunli Hakim qo'shbegi masjidi qurilgan. Uning janubida naqshdor, shimolida naqshsiz ayvonlar bor.

Bahouddin Naqshband dahmasi marmar qoplangan kvadrat supa bo'lib, atrofi marmar panjara bilan o'rалган. Undan shimolda tomonlari 9,5 m bo'lган aylana zinali marmar hovuz joylashgan. Dahma bilan hovuz orasida quduq bo'lib, uning yonida chiroyli shiypon – sakxona yaratilgan. Sakxonada ziyyoratchilarga muqaddas suv ulashiladi.

Hakim qo'shbegi masjidining shimolida azon o'qiluvchi minora va hovuz, g'arbida eni 37 m, bo'yi 40 m li xonaqoh mavjud.

Markazida atrofi peshtoq ravoqli ayvonlar bilano'rалган masjid, uning to'rida chorzamin uslubda ishlangan qirma naqshli mehrob bor. Imoratning har ikki tomonida simmetrik qurilgan ikki qavatli katta kichik hujralar bor.

Bahouddin Naqshband me'moray majmuasiga undan 500 m shimoli-sharqda joylashgan Qasri Orifon masjidi ham kiradi. Masjidning chap tomonida minora va hovuz, o'ng tomonida hazrat Bahouddin onalarining qabri joylashgan.

2003-yilda bu ansambl qayta rekonstruksiya qilinib, qadimgi darvozalar – Xo'ja Dilovar va Bobussalom asl holiga keltirildi. Bahouddin Naqshband maqbarasining sharq va janub tomonlari shimol tomondagi ayvonga uyg'unlashtirilib, ayvonlar tiklandi. Xonaqoh, masjid va madrasa binolari ta`mirlandi.

**Xoja Ka`bul Ahbor Vali ziyyoratgohi.** “Navro’z” MFYga qarashli Xushkob qishlog'ida Xoja Ka`bul Ahbor Vali ziyyoratgohi joylashgan. Tepalikdag'i maqbara ichida ushbu zotning 14 metrli qabrlari mavjud bo'lib, oyoq uchlarida shogirdlari Abdulloh Zohid ibn A`sad dafn qilingan. Maqbara oldida masjid qurilgan bo'lib, masjidning quyosh chiqar tomonida Xoja Ka`bul Ahbor Valining ikkinchi shogirdlari Mahmud ibn Hamid dafn qilingan. Masjidning orqa tomonida maydoni 40-50 gettarni tashkil qiladigan qabriston mavjud. Qabristondagi dastlabki qabr toshi bundan ming yil oldin o'rnatilgan.

**Amir Abdulahadxon saroyi.** Kogon shahrida qurilgan yagona va mashhur me'moray yodgorlik, amir saroyi. Temiryo'l vokzali yaqinida joylashgan. G'arb va Sharq uyg'unligini o'zida aks ettiruvchi ushbu obida amir Abdulahadxon tomonidan

rus imperatori Nikolay II ni Buxoroga taklif qilish maqsadida 1895-1898 yillarda qurilgan. Saroy me`morchiligida barokko va ampir yo`nalishidan foydalanilgan. Binoning umumiy ko`rinishi amirning Buxorodagi saroyidan mahobatliligi bilan farqlanadi. Qurilishda sharq va yevropa uslubi uyg'unlashgan holda olib borilgan, shu bilan birga, bino qurilishida mavritan, rus va mahalliy uslublardan ham foydalanilgan. Saroy toshdan qurilgan bo`lib, turli bezaklar bilan bezatilgan. Saroyning ichki qismi bezatilishida sharqona uslub ko`zga yaqqol tashlanadi(16-ilova).

Tumanda madaniyat va sport ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo`lib, jumladan, Kogon tuman Madaniyat va sport ishlari bo`limi 1970-yilda qurilgan bo`lib, “Bahouddin Naqshband” QFY, Yangiyo‘l” qishlog’ida joylashgan.

Bo`lim tasarrufiga 2 ta markaziy madaniyat uyi, 2 ta xalq jamoalari va Kogon tuman Niyoz Hoji MFY hududida 400 o‘rinli, “Bahouddin Naqshband” MFY hududida 126 o‘rinli va “Kogon” MFY xududida 120 o‘rinli tomosha zali mavjud.

## Xulosa va takliflar

Inson manfaatlarini ta`minlashda iqtisodiyotimizning yuksak suratlar bilan barqaror rivojlanishi qanday katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Inson manfaatlarini ta`minlash – aholimizning yarmidan ko`pi yashaydigan qishloq joylarda hayot darajasi va sifatini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli qishloq xo`jaligi sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, ilg'or texnologiyalarni joriy etishga asosiy e`tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, xomashyoni, eng avvalo, paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash bo'yicha aniq rejalar belgilanmoqda. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta`lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish - bularning barjasи iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir”.

Buxoro viloyatining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushi tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz bo'yicha qazib olinadigan tabiiy gazning 10 foizi, gaz kondensatining 11 foizi, neftning 7 foizi, yetishtiriladigan paxtaning 11 foizi, g'allaning 9 foizi, pillaning 12 foizi Buxoro viloyati hissasiga to'g'ri kelayotgani va boshqa misollarda bunga to'la ishonch hosil qilish mumkin. Bunda Kogon tumanining ham hissasi bor.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Kogon tumani Buxoro viloyati tumanlari ichida o'ziga xos o'ringa ega. Men Kogon tumani geografiyasini o'rganish davomida uning quyidagi xususiyatlarga ega ekanligini guvohi bo'ldim:

- ◆ Kogon tumani Buxoro viloyatining dastlabki (1926-yilda) tashkil etilgan tumanlaridan biri hisoblanadi;
- ◆ Tuman hududini viloyat tumanlari hududi bilan taqqoslaganda eng keyingi o'rindan biridaligi;
- ◆ Tuman viloyatning transport va qurilish sohasida asosiy o'ringa egaligi.

Men o'zimning bitiruv malakaviy ishimni tayyorlash jarayonida Buxoro geografiyasi va tarixiga oid, shu jumladan, Kogon geografiyasiga doir bir qancha

ilmiy va ommaviy adabiyotlarni tahlil qildim.. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, internet ma'lumotlari, viloyat va tuman statistika boshqarmasi ma'lumotlarini tahlil qilish asosida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldim.

Umuman olganda, olib borgan izlanishlarim shuni ko'rsatadiki, Kogon tumanida mustaqillik yillarida qator ijobjiy yutuqlarga erishildi. Tumanda ulkan bunyodkorlik ishlari olib borildi. Jumladan, ko'plab zamonaviy uy-joylar, kasb-hunar kollejlari va maktablar, ishlab chiqarish korxonalari va yo'llar qurildi. Shunga qaramay, hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Men bitiruv malakaviy ishini yozish davomida Kogon tumanining tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini o'rghanish asosida quyidagicha xulosalarga keldim va bu borada o'z taklif-tavsiyalarimni bermoqchiman:

1. Kogon tumanida xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishning potensial imkoniyatlari mavjud. Tumanning ijobjiy imkoniyatlaridan biri mehnat resurslarining ko'pligi va qishloq xo'jaligining rivojlanganligidir. Ana shuni inobatga olib, qishloq joylarida tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish katta samara beradi. Shu bilan birga, mavjud infratuzilma tizimini yaxshilash bilan xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratib berish, ularning sarmoyalari evaziga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan turli xildagi korxonalarini qurish maqsadga muvofiq.

2. Tumanda 2 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi. Ammo ularning barchasini hozirgi davr shaharsozlik talablariga javob beradi, deb bo'lmaydi. Yangi shaharchalar imkoniyatini atroflicha baholash, rivojlanish yo'nalishlariga ko'ra guruhlarga ajratish, investisiya muhitini yaxshilash, ularni hozirgi zamon shaharsozlik talablariga moslashtirish zarur.

3. Ziyorat turizmida nafaqat mamlakatimizda, balki musulmon olamida mashhur bo'lgan naqshbandiya tariqatining asoschisi, buxorolik yetti pirning yettingchisi, "balogardon" nomi bilan mashhur bo'lgan hazrat Bahouddin Naqshband majmuasi shu yerda joylashgan. Umuman olganda, Buxoroda ziyorat turizmining asosini "Yetti pir" tashkil etsa, shu pirlarning ikkitasi Kogon tumani hududdida joylashgan. Bulardan bittasi yuqorida ta'kidlaganimiz Bahouddin Naqshband va

ikkinchilari u kishining ustozи xojagon-naqshbandiya silsilasining yirik namoyandasи, buxorolik yetti pirning oltinchisi Sayyid Mir Kuloldir.

Ammo tumanning turistik imkoniyatlari shu ikki pirning majmuasi bilan cheklanmaydi. Tumanda e'tibordan chetda bo'lgan, ichki turizmdan kam foydalaniladigan yoki umuman foydalanilmaydigan turistik obyektlar mavjud. Shu bilan birga tumanda istiqbolli turistik imkoniyatlar ham mavjud. Ana shu turistik resurslardan ham foydalanish davr talabidir.

4. Bundan tashqari tumanda baland binolar, shovqin, kecha-kunduz tinmaydigan shaharlarda yashaydigan o'zbekistonlik shahar aholisi va xorijiy turistlar uchun qishloq hayoti bilan tanishtiruvchi "qishloq turizmi"ni, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan bog'liq agroturizmni, gastronomik turizmni yo'lga qo'yish mumkin. Xorijlik turistlarga taklif etiladigan qishloq aholisi bilan bir uyda ma'lum vaqt yashash, o'zga madaniyat bilan tanishish o'ziga xos qiziqish uyg`otadi. Zero, A.Frans ta'kidlagandek: «Sayohat nima bo'lishidan qat'iy nazar, har qanday jihatdan ko'proq narsa o'rgatadi. Ba'zida boshqa joyda o'tkazilgan bir kun, uyda o'tkazilgan o'n yildan ko'proq narsa beradi». Shu bilan birga mahalliy turizm (tuman yoki viloyat aholisi uchun) ni rivojlantirish, ayniqsa, mакtab o'quvchilarini Kogon temiryo'l vokzali, Chiqindini qayia ishlash korxonasi va boshqa ishlab chiqarish obyektlari bilan tanishtirish ularda iqtisodiy va ekologik tarbiyani shakllantirishda muhim o'rinn tutadi.

Men bitiruv malakaviy ishim mavzusi bo'yicha ishlарimni kelgusida davom ettirib, kelajakda yetuk ijodkor o'qituvchi bo'lishga va yangiliklar yaratishga va'da beraman. Men uchun ushbu bitiruv malakaviy ishi juda ibratli bo'ldi. Biiruv malakaviy ishni bajarish davomida kerakli ma'lumotlarni to'plash malakasiga ega bo'ldim. Ushbu ishimni bajarishda yaqindan yordam bergen ilmiy rahbarim hamda kafedramizning barcha professor-o'qituvchilariga katta minnatdorchilik bildiraman.


## Foydalaniman adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалик қоидаси бўлиши керак. Т.:, Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.:, Ўзбекистон, 2017. – 48 б.
3. Абдулла Кенжа. Баҳоуддин Нақшбанд ватани (Когон тумани 70 ёшда). – Бухоро, 1996, – 44 б.
4. Абиркулов Қ. Иқтисодий география. Т.:, Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. – 320 б.
5. Bahromov Q. Buxoro viloyati joy nomlari toponimikasi (izohli lug'at). Buxoro, 1994. – 20 б.
6. Эргашева М.К., Нематов А.Н. Бухоро вилояти туристик имкониятларидан самарали фойдаланишнинг географик жиҳатлари. “Экология, атроф-мухитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва уларни қайта тиклаш”. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Бухоро, 2018. – 422-425 б.
7. Ҳасанов И.Х., Ғуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси. Т.:, Университет, 2007. – 100 б.
8. Мавлонов А. Чўл урбанизацияси. Бухоро, Дурдона, 2015. – 176 б.
9. Наршахий. Бухоро тарихи. Toshkent, 1967.
10. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш. Бухоро географияси. Бухоро, 1994.
11. Неъматов Ҳ. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигига модернизатсия. Т.:, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – 358 б.
12. Ражабов Қ., Жамолова Д. Когон тумани тарихи. Т.:, “Tafakkur” нашриёти 2015. – 48 б.
13. Ражабов Қ., Жамолова Д. Когон шаҳри тарихи. Т.:, “Tafakkur” нашриёти 2015. – 48 б.
14. Садриддин Салим Бухорий. Баҳоуддин Нақшбанд ёки етти пир. – Т.:, “Янги аср авлоди”, 2006. – 20 б.

15. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.: „Университет”, 2014. –404 б.
16. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт, Тошкент 2013. – 228 б.
17. Шарифжон Бектош. Когонлик фозиллар. Бухоро, “Бухоро” нашриёти, 2014. –152 б.
18. Юсуф Курбоний, Азизаи Мардон. Зираобод (тариҳий-этнографик материаллар). Бухоро, “Дурдона” нашриёти, 2014. – 184 б.
19. Buxoro viloyati siyosiy-ma'muriy xaritasi. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo'mitasi. – Toshkent, 2016.
20. Kogon tumani pasporti. – Kogon, 2018.
21. O'zbekiston geografik atlasi. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo'mitasi. Toshkent.: 2016. – 192 b.
22. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.:, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 4-жилд, – 704 б.
23. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, Geodeziya, Kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo'mitasi “O'ZDAVYERLOYIHA” davlat yer tuzish ilmiy loyihalash instituti Buxoro filiali маълумотлари. Buxoro. 2018
24. O'zbekiston Respublikasi Favqulotda Vaziyatlar Vazirligi xuzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi Buxoro viloyati “Gidrometeorolgiya boshqarmasi” маълумотлари. Buxoro, 2018.
25. O'lakashunoslik atlasi (Buxoro viloyati). O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo'mitasi. – Toshkent, 2014.
26. <http://ziyonet.uz>
27. <http://geografiya.uz>

# ILOVALAR

## Kogon tumani sxematik kartasi



2-ilova

**Quyimozor kanali (o'rta va yuqori oqimi)**



3-ilova

### Parallel kollektori



4-ilova

### Kogon paxta tozalash koxonasi kirish darvozasi



5-ilova

**Kogon yog' korxonasi old ko'rinishi**



6-ilova

**Kogon donni qayta ishlash korxonasi old ko'rinishi**



7-ilova

### Buxoro viloyat “Suvoqova” DUK Kogon shahar filiali



8-ilova

### Kogon magistral gaz quvurlar boshqarmasi old ko’rinishi



9-ilova

**“Knauf Gips Buxoro” xorijiy korxonasi old ko’rinishi**



10-ilova

**Kogon chiqindini saralash va qayta ishlash korxonasi old ko’rinishi**




11-ilova

### **“Buxoroparranda” Aksiadorlik Jamiyati korxonasi kirish qismi**



12-ilova

### **Buxoro-1 temiryol vokzali**





13-*ilova*

### Mir Arab Oliy Madrasasi



14-*ilova*

### Sayyid Amir Kulol maqbarasi (Buxorolik yeti pirning oltinchisi)



15-ilova

**Bahouddin Naqshband me`moriy yodgorligi (Buxorolik yeti pirning so'ngisi)**



16-ilova

**Amir Abdulahadxon saroyi**



17-ilova

**Kogon tuman hokimlik binosi**



18-ilova

**Kogon shahar hokimlik binosi**



**Kogon tumani aholisi haqida ma`lumot** (Ushbu keltirilgan ma`lumotlarda Kogon

shahri aholi ma`lumotlari hisobga olinmagan)

T/r	Aholi soni	Ming kishi hisobida
1	Aholi soni	73,3
2	Shahar aholisi	8
3	Qishloq aholisi	65,3
4	Mehnat yoshidagi aholi soni	44
5	Bolalar va o'smirlar soni	19,454
6	Keksalar	9,846
7	O'lim	5
8	Tug'ilish	8,3
9	Tabiiy o'sish	3,3
10	Kelganlar soni	1,795
11	Ketganlar soni	2,736
12	Mehnatga layoqatli aholi	0,968
13	Iqtisodiy faol aholi	38,2
14	Iqtisodiyotda band bo'lganlar	38
15	Ishsizlar soni	0,126

*Jadval Kogon tumanr hokimligining statistika bo'limi ma`lumotlari asosida tuzildi*